Birinchi xalqaro turnir jahoning boshqa mamlakatlarida shaxmat taraqqiyotiga zo‘r ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Musobaqalarning soni yil sayin ortdi, shaxmat klublari tashkil etildi. 1857 yil oktyabrida Nyu-Yorkda Amerika shaxmat Kongressi bo‘lib o‘tdi. Kongress bilan bir vaqtda AQSHning birinchi championati o‘tkazildi. Unda Amerika va Yevropalik 14 ta eng kuchli shaxmatchilar, jumladan L.Paulsen, T.Likstengeyn qatnashdi. Bu turnir shaxmat tarixida alohidao‘rin tutgan. SHaxmat tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan Pol Morfining shu musobaqadan keyin shuhrati yanada oshdi.

Pol Morfi 1837 yil 22 iyunda AQSHning Nyu-Orlean shahrida tug‘ilgan. U 1850 yilga kelib nomdor shaxmatchi bo‘lib yetishadi. 1857 yil o‘tkazilgan AQSH championatida Pol Morfi birinchi mukofotni qo‘lga kiritadi. SHundan so‘ng Yevropaning eng kuchli shaxmatchilarini bilan uchrashish va o‘z mahoratini sinab ko‘rish harakatiga tushadi. Shu maqsadda 1858 yil iyun oyida Angliyaga jo‘naydi. Pol Morfi Yevropada deyarli bir yilcha bo‘lib, taniqli shaxmatchilarning hammasi bilan o‘ynaydi va ketma-ket g‘alaba qozonadi. 1858 yil dekabrda Morfi Yevropaning eng kuchli

shaxmatchisi Andersen bilan bahslashadi.

Bu musobaqa rasmiy bo‘lmasa ham, aslida jahon birinchiligi uchun o‘tkazilgan o‘yin edi. Bu matchda 11 partiya o‘ynaldi. Shundan 7 tasini Morfi yutgan, 2 partiyada yutqazgan va 2 partiya durang bilan yakunlangan. Ajoyib g‘alabalarga erishgan Pol Morfi 1859 yil iyunda AQSHga qaytib keladi. Pol Morfining iqtidoriga qoyil qolgan ishqibozlar zo‘r olqishlar bilan kutib, Nyu-York universiteti katta zalida donalari oltin va kumushdan bo‘lgan, badiiy bezab yasalgan shaxmat taxtasi hamda shaxmat donalari yopishtirilgan oltin soat sovg‘a qilishadi.

Morfi Nyu-Orleanga qaytgach, yuridik fanlar bilan shug‘ullandi. Mamlakatning shimoliy va janubiy qismlari o‘rtasida fuqarolar urushi boshlanib ketganligi sababli Morfi 1862 yil Gavanaga (Kuba), so‘ng Fransiyaga ketadi va 1864 yil vataniga qaytib keladi. Pol Morfi 60-yillarning boshlarida musobaqalarga qatnashmay qo‘yadi va 1869 yil shaxmat o‘ynashdan butunlay voz kechadi. Pol Morfi shaxmatdan ketgach, 1862 yil Londonda bo‘lib o‘tgan jahon shaxmat jamoatchiligining ikkinchi xalqaro turnirida Andersen g‘olib bo‘lgan.

SHaxmat o‘ynamay qo‘ygan Pol Morfi ruhiy kasallikka chalinadi va 1884 yil vafot etadi. Uning shaxmatdagi yantuqlari tarixdan munosib o‘rin oldi.

1866 yilda Andersen o‘tgan asr oxirining ajoyib shaxmatchisi Vilgelm Steynits bilan bahslashadi. Bu bellashuv rasmiy bo‘lmasa ham aslida jahon birinchiligi darajasidagi o‘yin edi. Uchrashuv 8:6 hisobi bilan yosh Steynits foydasiga hal bo‘ladi.

O‘tkazilgan 14 partyaning birortasida ham durang qayd etilmaganligi bahslar naqadar keskin va murosasiz kechganligidan darak beradi.

SHaxmat bo‘yicha jahon championi degan unvonni rasman birinchi bo‘lib Vilgelm Steynits (1886 yil) olgan. Lekin unga qadar

ham Yevropada tan olingan mohir shaxmatchilar bo‘lgan. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **XIX asrgacha yashab o‘tgan taniqli shaxmatchilar**

*1-jadval*


<b>Chempionlik yillari</b>	<b>Chempion</b>	<b>Yashagan yili</b>	<b>Mamlakati</b>
1495	Luis Ramires de Lusena	1465 – 1530 yillar atrofida	Ispaniya
1560 – 1575	Rui Lopes de Segura	1540 – 1580 yillar atrofida	Ispaniya
1575 – 1587	Jovanni Leonardo da Kutri	1542 – 1587	Neaplitaniq qirolligi
1619 – 1634	Joakino Greko	1600 – 1634	Neaplitaniq qirolligi
1747 – 1795	Fransua Filidor	1726 – 1795	Fransiya
1820 – 1840	Lui SHarl Mare de Lyaburdonne	1785 – 1840	Fransiya
1843 – 1851	Govard Staunton	1810 – 1874	Angliya
1851 – 1858	Adolf Andersen	1818 – 1879	Prussiya
1862 – 1866			
1858 – 1862	Pol Charlz Morfi	1837 – 1884	AQSH
1866 – 1886	Vilgelm Steynits	1836 – 1900	Avstro-Vengriya







Birinchi yirik xalqaro turnir 1851 yil Londonda o‘tkazilgan. Ushbu championatda dunyoning eng nomdor shaxmatchilari ishtirok etgan. Turnirda Adolf Andersen g‘alaba qozongan. Shu sabab tarixda jahon championi haqida so‘z borganda Adolf Andersen tilga olinadi.

### **Jahon championligi uchun o‘tkazilgan matchlar**

*2-jadval*

T/r	U ch r a sh g a n l a r		Yil	Joy
1	<u>Vilgelm Steynits</u>	 – 	<u>Logann Sukertort</u>	<u>1886</u>  <u>Nyu-York</u> ,  <u>Sent-Luis</u> ,  <u>Yangi Orlean</u>
2	<u>Vilgelm Steynits</u>	 – 	<u>Mixail Chigorin</u>	<u>1889</u>  <u>Gavana</u>
3	<u>Vilgelm Steynits</u>	 – 	<u>Isidor Gunsberg</u>	<u>1890-</u>  <u>Nyu-York</u> <u>1891</u>
4	<u>Vilgelm Steynits</u>	 – 	<u>Mixail Chigorin</u>	<u>1892</u>  <u>Gavana</u>
5	<u>Vilgelm Steynits</u>	 – 	<u>Emanuil Lasker</u>	<u>1894</u>  <u>Nyu-York</u> ,  <u>Filadelfiya</u> ,  <u>Monreal</u>
6	<u>Emanuil Lasker</u>	 – 	<u>Vilgelm Steynits</u>	<u>1896—</u>  <u>Moskva</u> <u>1897</u>
7	<u>Emanuil Lasker</u>	 – 	<u>Frenk Marshall</u>	<u>1907</u>  <u>AQSH</u>
8	<u>Emanuil Lasker</u>	 – 	<u>Zigbert Tarrash</u>	<u>1908</u>   <u>Dyusseldorf</u> ,  <u>Myunxen</u>
9 <sup>[2]</sup>	<u>Emanuil Lasker</u>	 – 	<u>David Yanovskiy</u>	<u>1909</u>  <u>Parij</u>
10	<u>Emanuil Lasker</u>	 – 	<u>Karl Shlexter</u>	<u>1910</u>  <u>Vena</u> ,  <u>Berlin</u>

11	<u>Emanuil Lasker</u>		<u>David YAnovskiy</u>	<u>1910</u>	 <u>Berlin</u>
12	<u>Emanuil Lasker</u>		<u>Xose Raul Kapablanka<sup>[3]</sup></u>	<u>1921</u>	 <u>Gavana</u>
13	<u>Xose Raul Kapablanka</u>		<u>Aleksandr Alexin</u>	<u>1927</u>	 <u>Buenos-Ayres</u>
14	<u>Aleksandr Alexin</u>		<u>Efim Bogolyubov</u>	<u>1929</u>	 <u>Germaniya,</u>   <u>Nederlandiya</u>
15	<u>Aleksandr Alexin</u>		<u>Efim Bogolyubov</u>	<u>1934</u>	 <u>Germaniya</u>
16	<u>Aleksandr Alexin</u>		<u>Maks Eyve</u>	<u>1935</u>	  <u>Nederlandiya</u>
17	<u>Maks Eyve</u>		<u>Aleksandr Alexin</u>	<u>1937</u>	  <u>Nederlandiya</u>
18	<u>Mikhail Botvinnik<sup>[4]</sup></u> <u>Vasiliy Smyslov</u> <u>Paul Keres</u> <u>Samuel Reshevskiy</u> <u>Maks Eyve</u>	    	Match-turnir pyati	<u>1948</u>	   <u>Gaaga,</u>  <u>Moskva</u>
19	<u>Mikhail Botvinnik</u>	 	<u>David Bronshteyn</u>	<u>1951</u>	 <u>Moskva</u>
20	<u>Mikhail Botvinnik</u>	 	<u>Vasiliy Smyslov</u>	<u>1954</u>	 <u>Moskva</u>
21	<u>Mikhail Botvinnik</u>	 	<u>Vasiliy Smyslov</u>	<u>1957</u>	 <u>Moskva</u>
22	<u>Vasiliy Smyslov</u>	 	<u>Mikhail Botvinnik<sup>[5]</sup></u>	<u>1958</u>	 <u>Moskva</u>
23	<u>Mikhail Botvinnik</u>	 	<u>Mikhail Tal</u>	<u>1960</u>	 <u>Moskva</u>

24	<u>Mixail Tal</u>	 – 	<u>Mixail Botvinnik</u> <sup>[5]</sup>	<u>1961</u>	 <u>Moskva</u>
25	<u>Mixail Botvinnik</u>	 – 	<u>Tigran Petrosyan</u>	<u>1963</u>	 <u>Moskva</u>
26	<u>Tigran Petrosyan</u>	 – 	<u>Boris Spasskiy</u>	<u>1966</u>	 <u>Moskva</u>
27	<u>Tigran Petrosyan</u>	 – 	<u>Boris Spasskiy</u>	<u>1969</u>	 <u>Moskva</u>
28	<u>Boris Spasskiy</u>	 – 	<u>Robert Fisher</u>	<u>1972</u>	 <u>Reykjavik</u>
29	<u>Robert Fisher</u>	 – 	<u>Anatoliy Karpov</u>	<u>1975</u>	
30	<u>Anatoliy Karpov</u>	 –	<u>Viktor Korchnoy</u>	<u>1978</u>	 <u>Bagio</u>
31	<u>Anatoliy Karpov</u>	 – 	<u>Viktor Korchnoy</u>	<u>1981</u>	 <u>Merano</u>
32	<u>Anatoliy Karpov</u>	 – 	<u>Garri Kasparov</u> <sup>[7]</sup>	<u>1984-</u> <u>1985</u>	 <u>Moskva</u>
33	<u>Anatoliy Karpov</u>	 – 	<u>Garri Kasparov</u>	<u>1985</u>	 <u>Moskva</u>
34	<u>Garri Kasparov</u>	 – 	<u>Anatoliy Karpov</u>	<u>1986</u>	 <u>London,</u>  <u>Leningrad</u>
35	<u>Garri Kasparov</u>	 – 	<u>Anatoliy Karpov</u>	<u>1987</u>	 <u>Sevilya</u>
36	<u>Garri Kasparov</u>	 /  <sup>[8]</sup> – 	<u>Anatoliy Karpov</u>	<u>1990</u>	 <u>Nyu-York,</u>  <u>Lion</u>
37	<u>Garri Kasparov</u>	 – 	<u>Naydjel Short</u>	<u>1993</u>	 <u>London</u>
38	<u>Garri Kasparov</u>	 – 	<u>Vishvanathan Anand</u>	<u>1995</u>	 <u>Nyu-York</u>
39	<u>Garri Kasparov</u>	 – 	<u>Vladimir Kramnik</u>	<u>2000</u>	 <u>London</u>
40	<u>Vladimir Kramnik</u>	 – 	<u>Peter Leko</u>	<u>2004</u>	 <u>Brissago</u>

41	<u>Anatoliy Karpov</u>	 - 	<u>YAn Timman</u>	<u>1993</u>	 <u>Nederlandiya</u> ,  <u>Indoneziya</u>
42	<u>Anatoliy Karpov</u>	 - 	<u>Gata Kamskiy</u>	<u>1996</u>	 <u>Elista</u>
43	<u>Anatoliy Karpov</u>	 - 	<u>Vishvanatan Anand</u>	<u>1998</u>	 <u>Lozanna</u>
44	<u>Aleksandr Xalifman</u>	 - 	<u>Vladimir Akopyan</u>	<u>1999</u>	 <u>Las-Vegas</u>
45	<u>Vishvanatan Anand</u>	 - 	<u>Aleksey Shirov</u>	<u>2000</u>	 <u>Tegeran</u>
46	<u>Ruslan Ponomaryov</u>	 - 	<u>Vasiliy Ivanchuk</u>	<u>2002</u>	 <u>Moskva</u>
47	<u>Rustam Kasymjanov</u>	 - 	<u>Maykl Adams</u>	<u>2004</u>	 <u>Tripoli</u>
48	<u>Veselin Topalov</u> <u>Vishvanatan Anand</u> <u>Pyotr Svidler</u> <u>Aleksandr Morozevich</u> <u>Peter Leko</u> <u>Rustam Kasymjanov</u> <u>Maykl Adams</u> <u>Yudit Polgar</u>	       	Turnir	<u>2005</u>	 <u>San-Luis</u>
49	<u>Vladimir Kramnik</u>	 - 	<u>Veselin Topalov</u>	<u>2006</u>	 <u>Elista</u>
50	<u>Vishvanatan Anand</u> <u>Vladimir Kramnik</u> <u>Boris Gelfand</u>	    	turnir	<u>2007</u>	 <u>Mexiko</u>

	<u>Peter Leko</u> <u>Pyotr Svidler</u> <u>Aleksandr Morozevich</u> <u>Levon Aronian</u> <u>Aleksandr Grishuk</u>	  			
51	<u>Vishvanathan Anand</u>	 - 	<u>Vladimir Kramnik</u>	<u>2008</u>	 <u>Bonn</u>
52	<u>Vishvanathan Anand</u>	 - 	<u>Veselin Topalov</u>	<u>2010</u>	 <u>Sofiya</u>
53	<u>Vishvanathan Anand</u>	 - 	<u>Boris Gelfand</u>	<u>2012</u>	 <u>Moskva</u>
54	<u>Magnus Karlsen</u>	 - 	<u>Vishvanathan Anand</u>	<u>2013</u>	 <u>Chennai</u>
55	<u>Magnus Karlsen</u>	 - 	<u>Vishvanathan Anand</u>	<u>2014</u>	 <u>Sochi</u>
56	<u>Magnus Karlsen</u>	 - 	<u>Sergey Karyakin</u>	<u>2016</u>	 <u>Nyu-York</u>
57	<u>Magnus Karlsen</u>	 - 	<u>Fabiano Karuana</u>	<u>2018</u>	 <u>London</u>
58	<u>Magnus Karlsen</u>	 - 	<u>Yan Nepomnyashiy</u>	<u>2021</u>	 <u>Dubay</u>

## Erkaklar o‘rtasida shaxmat bo‘yicha jahon championlari


### 3-jadval

<b>№</b>	<b>Championlik yillari</b>	<b>Tug‘ilganyili va rasmi</b>	<b>Familyasi ism-sharifi</b>	<b>Mamlakat</b>
<b>1495 - 1886 yillarning championlari</b>				
1	okolo 1495	ok. 1465 — ok. 1530	<u>Luis Ramires Lusena</u>	 Ispaniya
2	1560—1575	ok. 1540 — ok. 1580	<u>Ruy Lopes de Segura</u>	 Ispaniya
3	1575—1587	1542—1587	<u>Djovanni Leonardo da Kutri</u>	 Neapolitanskoe korolevstvo
4	1619—1634	1600—1634	<u>Djookino Greko</u>	 Neapolitanskoe korolevstvo
5	1747—1795	07.09.1726—31.08.1795	<u>Fransua-Andre Filidor</u>	 Fransiya
6	1820—1840	1785—13.12.1840	<u>Lui SHarl Mae de Laburdonne</u>	 Fransiya
7	1843—1851	ok. 1810—22.06.1874	<u>Govard Staunton</u>	 Velikobritaniya
8	1851—1858, 1862—1866	06.07.1818—13.03.1879	<u>Adolf Andersen</u>	 Prussiya
9	1858—1862	22.06.1837—10.07.1884	<u>Pol CCharlz Morfi</u>	 AQSH
10	1866—1886	14.05.1836—12.08.1900	<u>Vilgelm Steynits</u>	 Avstro-Vengriya

1886 -1993 yillarning chempionlari				
11	1886— 1894	  (14 may 1836 - 12 avgust 1900)	<u>Vilgelm Steynits</u>	 <u>Avstro- Vengriya</u>  <u>AQSH[3]</u>
12	1894— 1921	  (24 dekabr 1868 — 11 yanvar 1941)	<u>Emanuil Lasker</u>	 <u>Germanskaya imperiya</u>
13	1921— 1927	  (19 noyabr 1888 — 8 mart 1942)	<u>Xose Raul Kapablanka</u>	 <u>Kuba</u>

14	1927— 1935 1937— 1946	  (31 oktyabr 1892 — 24 mart 1946)	<u>Aleksandr</u> <u>Alexin</u>	 <u>Rossiyskaya</u> <u>imperiya</u>  <u>RSFSR</u>  <u>Fransiya</u> [4]
15	1935— 1937	  (20 mart 1901 — 26 noyabr 1981)	<u>Maks</u> <u>Eyve</u>	 <u>Nederlandiya</u>
16	1948— 1957 1958— 1960 1961— 1963	  (17 avgust 1911 — 5 may 1995)	<u>Mixail</u> <u>Botvinnik</u>	 <u>SSSR</u>
17	1957— 1958	  (24 mart 1921 — 27 mart 2010)	<u>Vasiliy</u> <u>Smyslov</u>	 <u>SSSR</u>

18	1960— 1961		<u>Mixail Tal</u>	 <u>SSSR</u>
19	1963— 1969		<u>Tigran Petrosyan</u>	 <u>SSSR</u>
20	1969— 1972		<u>Boris Spasskiy</u>	 <u>SSSR[5]</u>  <u>Fransiya</u>  <u>Rossiya</u>

21	1972— 1975	 <u>(9 mart 1943 — 17 yanvary 2008)</u>	<u>Robert Fisher</u>	 <u>AQSH</u>
22	1975— 1985	 <u>( 23 may 1951)</u>	<u>Anatoliy Karpov</u>	 <u>SSSR[5]</u>  <u>Rossiya</u>
23	1985— 1993	 <u>(13 aprel 1963)</u>	<u>Garri Kasparov</u>	 <u>SSSR[5]</u>  <u>Rossiya</u>

FIDE yo‘nalishida				
24	1993— 1999	 (23 may 1951)	Anatoliy Karpov	 <a href="#">Rossiya</a>
25	1999— 2000	 (18 yanvarya 1966)	Aleksandr Xalifman	 <a href="#">Rossiya</a>
26	2000— 2002	 (11 dekabr 1969)	Vishwanathan Anand	 <a href="#">Indiya</a>
27	2002— 2004	 ( 11 oktyabr 1983)	Ruslan Ponomaryov	 <a href="#">Ukraina</a>
28	2004— 2005	 ( 5 dekabr 1979)	Rustam Kasymdzhanov	 <a href="#">Uzbekistan</a>

29	2005— 2006	 <u>( 15 mart 1975)</u>	<u>Veselin Topalov</u>	 <u>Bulgariya</u>
<b>PSHA yo‘nalishida</b>				
30	1993— 2000	 <u>( 13 aprel 1963)</u>	<u>Garri Kasparov</u>	 <u>Rossiya</u>
31	2000— 2006	 <u>(25 iyun 1975)</u>	<u>Vladimir Kramnik</u>	 <u>Rossiya</u>

**2006 yildan keying championlar**

32	2006— 2007	 <u>( 25 iyun 1975)</u>	<u>Vladimir</u> <u>Kramnik</u>	 <u>Rossiya</u>
33	2007— 2013	 <u>( 11 dekabr 1969)</u>	<u>Vishwanathan</u> <u>Anand</u>	 <u>Indiya</u>
34	2013 — n. v.	 <u>( 30 noyabr 1990)</u>	<u>Magnus</u> <u>Karlsen</u>	 <u>Norvegiya</u>

## Ayollar o‘rtasida shaxmat bo‘yicha jahon championlari

4-jadval

Nº	Familyasi ism-sharifi va rasmi	Yashagan vaqtি	Mamlakat	Chempionlik yillari
1	 <b>Vera Menchik</b>	<u>16 fevral</u> <u>(1 mart)</u> <u>1906 -27</u> <u>iyun 1944</u>	 Rossiyskaya imperiya  Rossiyskaya respublika  RSFSR  CHexoslovakiya  Velikobritaniya	1927-1944
2	 <b>Lyudmila Rudenko</b>	<u>14 (27)</u> <u>iyul 1904</u> <u>— 26</u> <u>fevral</u> <u>1986</u>	 SSSR	1950-1953
3	 <b>Elizaveta Bikova</b>	<u>4 (17)</u> <u>noyabr</u> <u>1913 — 8</u> <u>mart 1989</u>	 SSSR	1953-1956 1958-1962
4	 <b>Olga Rubsova</b>	<u>7 (20)</u> <u>avgust</u> <u>1909 —</u> <u>13 dekabr</u> <u>1994</u>	 SSSR	1956-1958

5		<u>3 may</u> <u>1941</u>	■ SSSR	1962-1978
	<b><u>Nona</u> <u>Gaprindashvili</u></b>			
6		<u>17 yanvar</u> <u>1961</u>	■ SSSR	1978-1991
	<b><u>Mayya</u> <u>Chiburdanidze</u></b>			
7		<u>30 oktyabr</u> <u>1970</u>	■ Kitay	1991-1996 1999-2001
	<b><u>Se Szyun</u></b>			
8		<u>19 aprel</u> <u>1969</u>	■ Vengriya	1996-1999
	<b><u>Juja Polgar</u></b>			
9		<u>16 mart</u> <u>1976</u>	■ Kitay	2001-2004
	<b><u>Chju Chen</u></b>			

10		<u>19 aprel</u> <u>1979</u>	 Bulgariya	2004-2006
11		<u>29 oktyabr</u> <u>1976</u>	 Kitay	2006-2008
12		<u>23 aprel</u> <u>1984</u>	 Rossiya	2008-2010
13		<u>27 fevral</u> <u>1994</u>	 Kitay	2010-2012 2013-2015 2016-2017
14		<u>30 avgust</u> <u>1985</u>	 Ukraina	2012-2013

15		<u>21</u> <u>sentyabr</u> <u>1992</u>	 Ukraina	2015-2016
16		<u>29 may</u> <u>1991</u>	 Kitay	2017-2018
17		<u>31 yanvar</u> <u>1991</u>	 Kitay	s 2018

#### 1.13.4. “Shaxmat Oskari” mukofoti

**Shaxmat Oskari** – Har yili 12 oy ichida sport va ijodda a’lo natijalarga erishgan shaxmatchiga beriladigan mukofot.

Shaxmat Oskari – 1967 yil shaxmat mavzusida qalam tebratadigan jurnalistlarning ovoz berishi orqali ta’sis etilgan. Keyinchalik jurnalistlarga musobaqa tashkilotchilari va murabbiylar ham qo’shilgan. 1988 yil jurnalistlar uyushmasi tarqab ketganidan so‘ng ushbu mukofot berilmay qoldi.

1995 yil “SHaxmatnoe obozrenie–64” jurnali tahriri yati tashabbusi bilan mukofot qayta tiklandi. 2014 yildan shaxmat Oskari mukofotini berish yana to‘xtatilgan.

#### “Shaxmat Oskari” mukofoti sovrindorlari

5-jadval

Y i l	G‘ o l i b l a r	M a m l a k a t l a r
1967	<u>Bent Larsen</u>	Daniya
1968	<u>Boris Spasskiy</u>	SSSR
1969	<u>Boris Spasskiy</u>	SSSR
1970	<u>Robert Djeyms Fisher</u>	AQSH
1971	<u>Robert Djeyms Fisher</u>	AQSH
1972	<u>Robert Djeyms Fisher</u>	AQSH
1973	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1974	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1975	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1976	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1977	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1978	<u>Viktor Korchnoy</u>	Shveysariya
1979	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR

1980	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1981	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1982	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR
1983	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR
1984	<u>Anatoliy Karpov</u>	SSSR
1985	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR
1986	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR
1987	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR
1988	<u>Garri Kasparov</u>	SSSR

1989–1994 yillar oralig‘ida berilmagan.

1995	<u>Garri Kasparov</u>	Rossiya
1996	<u>Garri Kasparov</u>	Rossiya
1997	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
1998	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
1999	<u>Garri Kasparov</u>	Rossiya
2000	<u>Vladimir Kramnik</u>	Rossiya
2001	<u>Garri Kasparov</u>	Rossiya
2002	<u>Garri Kasparov</u>	Rossiya
2003	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
2004	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
2005	<u>Veselin Topalov</u>	Bolgariya
2006	<u>Vladimir Kramnik</u>	Rossiya
2007	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
2008	<u>Vishvanatan Anand</u>	Indiya
2009	<u>Magnus Karlsen</u>	Norvegiya
2010	<u>Magnus Karlsen</u>	Norvegiya
2011	<u>Magnus Karlsen</u>	Norvegiya
2012	<u>Magnus Karlsen</u>	Norvegiya
2013	<u>Magnus Karlsen</u>	Norvegiya

**“Shaxmat Oskari” mukofoti 1982–1988 yillarda jahondagi  
taniqli shaxmatchi ayollarga ham berilgan**

6-jadval

God	Pobeditel	Strana
1982	<u>Nona Gaprindashvili</u>	■ SSSR
1983	<u>Pia Kramling</u>	■ SHvetsiya
1984	<u>Mayya Chiburdanidze</u>	■ SSSR
1985	<u>Mayya Chiburdanidze</u>	■ SSSR
1986	<u>Mayya Chiburdanidze</u>	■ SSSR
1987	<u>Mayya Chiburdanidze</u>	■ SSSR
1988	<u>Yudit Polgar</u>	■ Vengriya

**Erkaklar o‘rtasida mamlakatlar bo‘yicha**

7-jadval

T/r	M a m l a k a t	G‘ o l i b l i k
1	■ SSSR	17
2	■ Rossiya	7
3	■ Indiya	6
4	■ Norvegiya	5
5	■ AQSH	3
6	■ Bolgariya	1
7	■ Daniya	1
8	■ Shveysariya	1

## **1.14. O‘zbekistonda kamol topgan mashhur shaxmatchilar**

Mamlakatimizda shaxmat madaniyatining rivojlanishida qadimgi sharq an’analarining ta’siri katta. Jarayonning jadal davom etishi tufayli o‘zbek shaxmat maktabining takomillashgan shakli vujudga kela boshladi.

Ajoyib o‘yinlari bilan tanilgan va tashkillashtirilayotgan musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashayotgan shaxmatchilarimiz oz emas. Risolamizda respublikamizda shaxmat madaniyatini rivojlantirishga, qadimgi shaxmat nazariyasi va amaliyotini bugungi yutuqlar bilan uyg‘unlashtirishga, O‘zbekiston sport sharafini ulug‘lashga va shaxmat maktabi vakillarini jahonda yuqori cho‘qqilarini zabit etishga o‘z hissasini qo‘sghan taniqli shaxmatchilarning ayrimlari ijodiy yo‘liga qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

**S.N.Freyman** (1882–1946). O‘zbekistonda shaxmat harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghanlardan biri, umrining oxirigacha Toshkentda yashagan.

Sergey Nikolaevich Freyman 1907 yil o‘tkazilgan shaxmat bo‘yicha butun Rossiya beshinchisi turnirida qatnashib, tajriba orttiradi. 1911 yil rasman shaxmat bo‘yicha sport ustasi bo‘ladi.

Inqilobdan keyin o‘tkazilgan yirik musobaqalarda qatnashadi. 1929 yil sobiq SSSR birinchiligi bahsida mamlakatning ikkinchi shaxmatchisi darajasiga ko‘tariladi. To‘rt marta jumladan, (1932, 1934, 1935, 1936 yillarda) O‘zbekiston championi bo‘ladi.

1929 yil Turkmaniston championatida, 1937 yil Qirg‘iziston championatida konkursdan tashqari qatnashib birinchi o‘rinni egallaydi.

1927 va 1934 yillarda o‘tkazilgan O‘rta Osiyo birinchiliklarida ham g‘olib bo‘ladi. S.N.Freyman jahonning taniqli shaxmatchilari Alyoxin, Rubinshteyn, Shlexter, Lasker, Teyxman,

Shpilman va boshqalar bilan yakkama-yakka kuch sinashgan.

S.N.Freyman zo‘r amaliyotchi hamda mashhur shaxmat nazariyotchisi. U ba’zi nazariy tahlillarni “Toshkent varianti” deb atagan, adabiyotda ular Freyman nomi bilan yuritiladi. O‘zbek shaxmatchilarining ko‘pini mahoratini oshirishda, shaxmatni ommalashtirishda, Sergey Nikolayevich Freymanning xizmatlari katta.

**N.N.Rudnev** (1895–1944). 1926 yili Xarkovdan Toshkentga ko‘chib keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashaydi. Nikolay Nikolaevich Rudnev ixtisosi bo‘yicha muzikachi edi. U bilan birga ishlagan avvalgi Hamza nomli, hozirgi Toshkent akademik drama teatri xodimlari nihoyatda kamtar bu insonni hozir ham hurmat bilan esga olishadi.

1924 yil Mangeymda o‘tkazilgan shaxmat kongressining bosh turnirida erishgan yutuqlari uchun N.Rudnevga shaxmat bo‘yicha sport ustasi unvoni beriladi.

Nikolay Nikolaevich Rudnev 1927 yil Toshkentda o‘tkazilgan shaxmat bo‘yicha O‘rta Osiyo turnirida qatnashib, Freyman bilan birinchi va ikkinchi o‘rinlarni bo‘lishadi hamda qo‘srimcha matchda champion bo‘ladi. 1932 yil O‘zbekiston championatida Freymandan keyin ikkinchi o‘rinni, 1938 yil birinchi o‘rinni egallaydi va O‘zbekiston championi bo‘ladi.

**Azmiddin Xo‘jayev** (1892–1946). 1924 yilgacha o‘zbek shaxmatchilari amal qilib kelgan eski qoidalardan xalqaro qoidalarga o‘tishi va O‘zbekistonda shaxmatni keng tarqalishiga hissa qo‘sghan tashabbuskorlardan biri.

Shaxmat o‘ynagani uchun madrasadan haydalgan, shunga qaramay shaxmatni tark etmay, bilganlarini boshqalarga o‘rgatgan.

Eski shatranj qoidalardan xalqaro yangi qoidalarga o‘tilgach, Azmiddin Xo‘jayev eski shaharda (Toshkent) shaxmat to‘garaklarini ochib, rahbarlik qiladi va shogird tayyorlaydi, o‘z

mahoratini yildan-yilga oshiradi.

A. Xo‘jayev 1929 yil birinchi toifali shaxmatchi bo‘ladi. 1930 yil Samarqandda o‘tkazilgan respublika birinchiligidagi champion unvoni beriladi. O‘zbekistonning birinchi championi bo‘ladi.

Azmiddin Xo‘jayev shaxmat nazariyasini yaxshi bilardi. Ayniqsa, endshpillar sohasida mahoratli edi. Sport ustasi V.Panov u haqda shunday yozgan: “Azmiddin Xo‘jayev – o‘zbeklar orasidagi “yevropalashgan” shaxmatchi. U O‘zbekiston Chigorini – milliy shaxmat kadrlari ustozи hamda tarbiyachisidir”.

**Po‘latxon Saidxonov** (1892–1950). O‘zbekistonda shaxmatni rivojlantirishga hissa qo‘sghan qaldirg‘ochlardan. Qo‘qonlik Po‘latxon Saidxonov 1927 yildayoq mamlakatimiz da mohir shaxmatchi sifatida tanilgan.

O‘sha yili Moskvada o‘tkazilgan kasaba soyuzlari birinchiligidagi qatnashgan Po‘latxon yarim finalgacha yutqazmay finalda sport ustasi Vasiliy Panovni yenggan.

Shiddatli kombinasiyalari bilan barchani o‘ziga mahliyo qilgan Po‘latxon Saidxonov o‘ta qobiliyatli shaxmatchi edi. Respublikamizdagi ko‘p shaxmatchilar Po‘latxon Saidxonovni ustoz deb biladi.

**G. Shaxzoda** (1913–1976). 1913 yil Samarqand shahrida tug‘ilgan. 30-yillarda mohir shashkachi sifatida tanilgan. 1935–1936 yillar shaxmat bilan ham jiddiy shug‘ullandi, 1945 yilgi respublika championatida 3–4–5-o‘rinni bo‘lishib oldi.

1950 yil Respublika championi bo‘ldi. Shaxzoda 1948, 1951, 1953, 1960 yillarda o‘tkazilgan sobiq SSSR jamoa birinchiliklarida O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida qatnashdi, 1948 yil unga sport ustasi unvoni berildi.

**A.V.Grushevskiy** 1932 yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. Aleksandr Vasilevich O‘zbekiston shaxmatchilari orasida eng ko‘p muvaffaqiyat qozongan. 1949–1964 yillarda o‘tkazilgan

championatlarda qatnashib, o'n marta g'olib chiqqan. Bundan tashqari mamlakat shaxsiy va jamoa birinchiliklarida ham faol ishtirok etgan. A.Grushevskiy raqibi kim bo'lishidan qat'iy nazar taxtada sodir bo'lgan vaziyatga aniq baho bera olgan.

U 1951 yil sport ustaligiga nomzod, 1960 yil sobiq SSSR sport ustasi bo'ldi. A.Grushevskiy qo'llagan ko'p partiyalarga shaxmat to'g'risidagi adabiyotlarda keng o'rin berilgan. A.Grushevskiy 1959 yili Moskvada SSSR xalqlari ikkinchi spartakiadasida Belorussiyalik xalqaro sport ustasi G.Veresovni, 1966 yil SSSR birinchiligida xalqaro grossmeyster A.Suetinni yengib, ancha tanilgandi.

**E.B.Muxin.** O'zbekistonlik shaxmatchilar Evgeniy Borisovich Muxinni grossmeysterlarning "kushandası" deyishadi. Muxin 1946–1950 yillar Toshkentdagı o'quvchilar saroyi qoshidagi shaxmat to'garagida shaxmat sirlaridan voqif bo'lган. 1952 yil respublika kattalar championatida 4-7- o'ringa da'vogarlik qildi va peshqadamlar qatoriga o'tdi. Uning kombinasion qobiliyati tobora sayqal topib bordi. Shu tufayli sport ustalari bilan bo'lган uchrashuvlarda ham g'oliblikni qo'lga kiritdi.

1953 yil Leningradda o'tkazilgan SSSR jamoa birinchi-ligida sport ustasi SHamaevni enggani ko'pchilikka kutilmagan hodisadek tuyuldi. Lekin bu g'alaba Muxin mahorati tobora ortib borayotganligidan dalolat edi. 1955 yilgi respublika championatida Muxin 2–3-o'rinni egallab SSSR sport ustaligiga nomzod bo'ldi. 1967 yil SSSR sport ustaligi talablarini bajardi. Muxin taktik mahoratli, murakkab hisoblarni tez bajarardi. Uning qobiliyatli shaxmatchi ekanligini grossmeysterlar ham e'tirof etishgan.

**G.T.Agzamov** (1954–1986). O'zbekistonning birinchi grossmeysteri Georgiy Agzamov 1954 yil Toshkent viloyatining Olmaliq tumanida tug'ilgan. 20 yoshida SSSR sport ustasi talabini bajargan. 1981 yil SSSR xalqlar spartakiadasida O'zbekiston terma jamoasi safida birinchi taxtada uch nafar jahon championi – M.Tal, T.Petrosyan va B.Spasskiy hamda L.Polugaevskiy va M.Taymanov kabi grossmeysterlar bilan o'ynagan.

1982 yil xalqaro sport ustasi va 1984 yil xalqaro grossmeyster unvonlarini olgan. Ikki yilda 6 ta xalqaro turnir g‘olibi bo‘lgan va 5 marta grossmeysterlik talabini bajargan. 1986 yil Sevastopolda baxtsiz voqeа tufayli 31 yoshida vafot etgan.

O‘zbekiston shaxmat federasiyasi 2007 yildan buyon har yili Toshkent shahrida Georgiy Agzamov xotirasiga bag‘ishlab shaxmat bo‘yicha xalqaro turnir o‘tkazib kelmoqda.

**Mamajon Muhitdinov** (1927–2002). 1927 yil Namangan viloyatida tug‘ilgan. Markaziy Osiyoda shaxmat bo‘yicha birinchi sport ustasi (1956 yil). 4 marta O‘zbekiston championi (1952, 1954, 1957, 1965 yillar). 1965 yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy unvoni berilgan.

1987 yildan xalqaro toifadagi hakam bo‘lgan.

1949 yil Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutini tugatgach, 1960 yilgacha temir yo‘l boshqarmasi- da muhandis, 1960 yildan 1971 yilgacha respublika o‘quvchi- lar saroyidagi shaxmat to‘garagida va mamlakat shaxmat terma jamoasida bosh murabbiy bo‘lgan.

1971 yildan 1981 yilgacha O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tarix institutida ilmiy xodim bo‘lgan, tarix fanlari nomzodi.

1961 yildan 1982 yilgacha O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi- ga raislikqilgan. 1956yildan “Sovet O‘zbekistoni” gazetasishaxmat bo‘limida va 1967 yildan “Guliston” jurnalida muxbir bo‘lgan.

Uzoq yil “O‘zbekistonda shaxmat madaniyati tarixi” mavzusida tadqiqot olib borgan. Shaxmat nazariyasi va uslubiga oid darslik, ommabop kitoblar yozgan va tarjima qilgan.

Jismoniy tarbiya va sportga qo‘songan hissasi uchun 1997 yil “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Uning shaxmat o‘yiniga doir “Shaxmat va adabiyot”, “O‘zbekistonda shaxmatchilik”, “Aql mo‘jizasi”, “A’zamovlar sulolasi”, “64 katak – 32 dona”, “Sharq – shaxmat vatani”, “Azmiddin Xo‘jaev xotira turnirlari”, “Ot surib,

fil o‘ynatib”, “Sohibqiron dona surganda”, “Kataklarda yashiringan olam”, “Shaxmat”, “Maroqli hikoyalar” kabi asarlari hozirgacha kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan o‘qilmoqda.

**Rustam Mashrukovich Qosimjonov** 1979 yil 5 dekabrda Toshkentda tug‘ilgan. 5 yoshidan A.V. Grushevskiy rahbarligida shaxmat bilan shug‘ullana boshlagan. 1990 yil yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston championi, 1994 yil 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar o‘rtasida Osiyo championi (Qatar), 1996 yil xalqaro sport ustasi, 1997 yil kattalar o‘rtasida O‘zbekiston championi, xalqaro grossmeyster.

1998 yil kattalar o‘rtasida Osiyo championati g‘olibi (Eron), 1999 yil 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasida jahon championati sovrindori (Armaniston), 2002 yil jahon Kubogi sovrindori (Hindiston).

2004 yil Liviyaning Tripoli shahrida bo‘lib o‘tgan FIDE championatining finalida o‘zbek grossmeysteri Rustam Qosimjonov angliyalik Maykl Adamsni mag‘lub etib, **FIDE tasnifi bo‘yicha XVII jahon championi** bo‘ldi. 2015 yil reytingini – 2715 ballga etkazadi. Championlik davri – 1 yil (2004–2005).

O‘zbek o‘g‘loni tarixiy g‘alabasi bilan muqaddas zaminimizda kamolga etgan buyuk zotlarga munosib voris ekanini amalda isbotladi. Bu g‘alaba o‘zbek xalqining yuksak salohiyat, boy aqlzakovat sohibi sifatida jahon miqyosidagi obro‘sini hamda vatanimiz shon-shuhratini oshirdi. Uning g‘alabasi mamlakatimiz yoshlarining shaxmatga nisbatan qiziqishini oshirish barobarida jahon arenalarida ishtirok etishlariga ham katta turtki bo‘ldi.

2000 yil R. Qosimjonov “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. 2004 yil “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlangan.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 5 martdagি „Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruв tizimini

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga qaratilgan bo‘lib, mamlakat sportchilarining xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etishini ta’minlash zarurligi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevralda tasdiqlangan 2019–2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorida respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, barcha aholini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazzam shug‘ullanishga jalb qilish, mamlakatdagi sport infratuzilmasidan to‘laqonli va samarali foydalanishni ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Boshqa sport turlari qatori shaxmatga bo‘lgan e’tibor ham kuchaymoqda. O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida birinchi “RIBO‘SM” (Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smlar sport maktabi) tashkil etildi. Bu esa yoshlarimizning xalqaro turnirlar, Juhon championatlari va Olimpiadalarda ishtirok etishi uchun keng imkoniyat yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2018 yil 9 avgustdagi PQ–3906 sonli “O‘zbekistonda shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng, mazkur “RIBO‘SM”ga “Xalqaro shaxmat akademiyasi” maqomi berildi.

Shaxmat bo‘yicha ko‘plab musobaqalar o‘tkazilmoqda. Bir qator hamyurtlarimiz jahon tan olgan shaxmatchilar bilan tengmatteng dona surmoqda. Buning isboti sifatida 2019 yil Turkiyaning Konya shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon SHaxmat Olimpiadasida rekord natija ko‘rsatishdi. Rossiya, Xitoy, Ukraina va Hindiston grossmeysterlarini engib, ilk marta oltin medalni qo‘lga kiritishdi. Ushbu natija tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitildi.



*3-rasm. O‘zbekiston o‘smlar terma jamoasi Butunjahon Shaxmat Olimpiadasi g‘olib*

Bundan tashqari ularga munosib o‘rinbosarlar (yosh sport ustalari) ham voyaga etmoqda. Yana bir yutuq shuki, iqtidorli shaxmatchimiz Javohir Sindarov 12 yoshida grossmeysterlik talabini bajarib, jahondagi eng yosh grossmeysterlar ro‘yxatidan joy oldi. Nodirbek Abdusattorov 13 yoshida, Nodirbek Yakubboev va Shamsiddin Vohidov esa 17 yoshida grossmeysterlik talabini bajarishdi. Bunday iqtidorli shaxmatchilar safi ortib bormoqda.

Mo‘minova Nafisa O‘zbekistondagi ayollar orasida birin-chi bo‘lib grossmeyster bo‘lgan shaxmatchi hisoblanadi. U 2002 yil O‘zbekiston championi, 2008 yil Osiyo championati va 2010 yilgi Jahon championatida kumush medallar sohibasi bo‘lgan.

Hozirda Nafisaning izdoshlari Gulruxbegim Toxirjonova, Nodira Nodirjonova, Sarvinoz Qurbanboeva, Sevara Boymurodova, Irina Gevorgyan, Bahora Abdusattorova, Sitora Saparova, Nilufar Yoqubboeva hamda yoshlarimizdan Umida Omonova va Afro‘za Xamdamovalar xalqaro arenalarda O‘zbekiston sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.



*4-rasm. Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston yoshlar terma jamoasi  
a’zolari*

Bundan tashqari 6 yoshli Xumoyun Bekmurodov eng yosh sport ustaligiga nomzod shaxmatchi bo‘lib, nomi Ginnesning rekodlar kitobiga kiritildi. YOsh, iqtidorli shaxmatchilarimiz safi kengayib bormoqda. Buning barchasi yurtimizda sportga berilayotgan e’tibor samarasidir.

### **O‘z-o‘zini nazoorat qilish savollari**


- 1. Shaxmatning vatani?**
- 2. Shaxmatning birinchi nomi nima?**
- 3. Shaxmat bo‘yicha birinchi rasmiy jahon championi?**
- 4. Shaxmat tarixida yagona “o‘lmas” champion?**
- 5. Shaxmat bo‘yicha o‘zbekistonlik jahon championi?**
- 6. Butunjahon shaxmat federatsiyasi qanday nomlanadi?**
- 7. Shaxmat bo‘yicha birinchi rasmiy jahon championati qachon va qaerda bo‘lgan?**
- 8. O‘zbekistonning birinchi championi?**
- 9. Jahon championlarining qaysi biri 9 marta “super turnir” g‘olibi bo‘lgan va Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan?**
- 10. “Chaturanga” so‘zining ma’nosi nima?**
- 11. O‘zbekistonning birinchi grossmeysteri kim?**
- 12. Kim jahon championi FIDEning prezidenti bo‘lgan?**

## II Bob.. SHAXMAT O‘YINI QOIDALARI

### 2.1. Shaxmat taxtasi

Shaxmat eng qadimiy o‘yinlardan biri. U go‘yoki ikki lashkarning jang san’atini eslatadi. Lekin bu o‘yin fikrlar kurashiga asoslangan o‘ziga xos san’atdir.


Shaxmat taxtasi 64 ta teng kataklarga bo‘lingan, 32 tasi oq va 32 tasi qora. Taxtaning bo‘yi va eni bo‘ylab 8 tadan qatorlar joylashgan. Kataklarni xonalar deb atasa ham bo‘ladi. O‘yin uchun taxta shunday turishi kerakki, chap tomonagi burchak qora xona bo‘lishi kerak (5-rasm):



5- rasm


Taxtaning bo‘yiga tomon ketma-ket joylashgan xonalari – *vertikal qatorlar* deyiladi. Ular shaxmatda 8 ta bo‘ladi. Har bir

vertikal qator lotin – A (a), V (be), S (se), D (de), E (e), F (ef), G (je), N (ash) harflari bilan belgilangan (6- rasm):



*6- rasm*


Punktir ( ) orqali ko‘rsatilgan yo‘llar esa: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 raqamlari bilan belgilangan va ular – *gorizontal qatorlar* deyiladi (7-rasm):



### 7- rasm

Taxtaning bir xil rangdagi xonalarini tutashtiruvchi egri yo‘llar esa – *diagonal kataklar* deyiladi (8- rasm).

Izoh: Rasmda faqat oq kataklar bo‘yicha diagonal ko‘rsatilgan:



### 8- rasm

#### 2.1.1. Taxtaning bo‘linishi


**Shaxmat taxtasini shartli ravishda** 3 qismga bo‘lish mumkin:

A1– A8 – C8– C1 to‘rtburchagidan iborat qismi – *farzin qanoti* (flangi) deyiladi.

F1– F8– H8– H1 to‘rtburchagidan iborat qismi esa – *shoh qanoti* (flangi) deyiladi.

Shaxmat taxtasining F4– E4– D4– C4– C5 – D5 – E5– F5 kvadratidan iborat qismi – *katta markaz* deyiladi.

Shaxmat taxtasining E4 – E5 – D4 – D5 kvadratidan iborat qismi esa – *kichik markaz* deyiladi (9– rasm):




9– rasm

### 2.1.2. Kataklarning nomlari

Shaxmat taxtasi bilan tanishib chiqdik. O‘yin qoidalari va donalarning harakatini o‘rganishdan oldin shaxmat yozuvi, ya’ni alifbosidan foydalanishni bilsiz zarur. Hatto, taxtaga qaramay turib, kataklar rangini bilsiz kerak.

Taxtaning har bir katagi – vertikal harf va gorizontal raqam bilan ifodalangan. Masalan, e4 xonasidan 2 ta diagonal o‘tkazish mumkin. (b1– h7 va h1– a8). Taxtaning har bir katagini yozuvda ifodalash uchun shu xona joylashgan harf va raqamdan foydalaniladi, ya’ni ularni tutashtirsak, katakning nomi kelib chiqadi. Masalan: v1, s2, d3, e4, f5, ... va hokazo (10- rasm):



*10– rasm*

### **Shaxmatchilarga dastlabki ta’lim berish uslubi**

Mashg‘ulotga jalb qilingan o‘quvchilarning aksariyati shaxmat nazariyasi haqida ma’lumotga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun dastlab ularga o‘yining maqsadi, shaxmat alifbesi o‘rgatiladi. Taxta va donalar haqida, ularning qismlarga bo‘linishi, o‘yin qoidalari, rokirovka va uning turlari haqida tushuncha beriladi. Bundan tashqari shaxmatga doir adabiyotlarda uchraydigan qisqa belgilar va shaxmatga doir atamalar haqida tushuntiriladi.

### **Hozircha dastlabki zarur atamalar bilan tanishamiz:**

- rasm – shaxmat taxtasining tasviri;
- vaziyat, holat** – shaxmat taxtasidagi donalarning ma’-lum bir holatda joylashuvi;
- taxta** – shaxmat o‘yini o‘ynaladigan maydon, joy;
- xona** – shaxmat taxtasidagi ma’lum katak;
- dona** – shaxmat o‘yinida ishtirok etuvchi piyoda va sipoh.

### **Mashq va topshiriqlar**

1. Daftaringizga shaxmat taxtasini chizib, vertikal bo‘yicha harflarni va gorizontal bo‘yicha raqamlarni yozing.
2. Shaxmat taxtasi yordamisiz xayolda “d” vertikali va 5-gorizontaldi kataklarni og‘zaki ayting va yozing.
3. a1–h8 va h1–a8 qiya kataklari bo‘yicha xuddi shu tariqa xonalarning nomlarini og‘zaki ayting va yozing.
4. Shaxmat taxtasidagi eng qisqa va eng uzun qiya kataklarni toping, ularning sonini aniqlab, daftaringizga yozing.

## 2.2. Shaxmat donalari

Shaxmat taxtasida hamisha oq donalar pastda, qora donalar yuqorida joylashgan bo‘ladi (12- rasm):



*12- rasm*

Shaxmat o‘yinida har bir tomonda 8 tadan sipoh va 8 tadan piyoda, jami 16 ta dona bo‘ladi. O‘yinda 32 ta dona ishtirok etadi. Sipohlarning 5 ta turi mavjud: 1 tadan shoh va 1 tadan farzin, 2 tadan rux, 2 tadan fil va 2 tadan ot bo‘ladi.

Oq donalar 1 va 2 gorizontalda, qora donalar esa 7 va 8 gorizontalda terilishi shaxmat adabiyotlarida ifodalash uchun asos

qilib olingan.

Amalda o‘ynovchining chap tomonidagi burchak qora, o‘ng tomonidagi burchak esa oq rangda bo‘lishi shart.

Oq farzin oq katakda, qora farzin qora katakda terilishini unutmang.

*Izoh:* Farzin o‘z rangidagi katakda turadi.

Shaxmat donalari 2 qismga bo‘linadi:

1) **piyodalar** – 8 ta.


2) **sipohlar** (figuralar) – 8 ta. Sipohlarning o‘zi ham 2 qismga bo‘linadi:

1) **og‘ir sipohlar** – farzin va ruxlar.

2) **engil sipohlar** – otlar va fillar.

Adabiyotlarda donalarni ifodalash uchun qisqacha belgilardan foydalaniladi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

t/ r	Donalarning o‘zbekcha nomlanishi	Donalarning ruscha nomlanishi	Donalarning inglizcha nomlanishi	Qisqacha belgisi	Donalar tasviri
1.	SHoh	Karol	King	SH	 
2.	Farzin	Ferz	Queen	Fz	 
3.	Rux	Ladya	Rook	R	 
4.	Fil	Slon	Bishop	F	 
5.	Ot	Kon	Knight	O	 
6.	Piyoda	Peshka	Pawn	–	 

## 2.2.1. Donalarning yurishi

Endi donalarning yurish qoidasi bilan tanishamiz.


Taxtada harakatlanuvchi donalar turlichal kuchga ega.

### Shoh

**Shoh** – eng bebahvo va bosh sipoh hisoblanadi. Yozuvda qisqacha Sh harfi bilan belgilanadi.

Aytaylik, shoh markazda d4 xonasida joylashgan bo‘lsin (13-rasm). U holda – Shd4 tarzida yozamiz. Endi uning harakat doirasini ko‘rib chiqaylik.

### Shoh faqat bir xona yura oladi.



13- rasm

Shoh himoyasiz raqib donasini yutib olishi mumkin. Yutib olingan sipoh o‘yinda qayta ishtirok etmaydi. “Kisht be- rish” – raqib donasining shohga hujumidir. Ikki shoh bir- biriga yonmaydon turishi mumkin emas.

“Mot” – bu kisht berilganda shohning yurish imkoniyatlari to‘la cheklangan holatidir. Shoh yura olmasa “mot” bo‘ladi. Demak, o‘yin nihoyasiga yetgan hisoblanadi. Shohni urib olish mumkin emas.


## Farzin

**Farzin** – shaxmat sipohlari ichida eng kuchlisi. Chunki u harakatchan va epchil dona. Yozuvda qisqacha **Fz** harfi bilan belgilanadi.

Farzin ham shoh singari yurishi va yutishi mumkin. Lekin farq shundaki, shohning harakat doirasi faqat yon qo'shni kataklar bilan chegaralansa, farzin shu yo'naliishlar bo'yicha istalgan kataklarga yura oladi.

8- rasmdagi vaziyatda shohning o'rniga farzinni qo'yib ko'ramiz. Shoh bu xonadan 8 ta katakka yurishi mumkin edi. Farzin esa bir yo'la 27 ta katakka yurish imkoniyatiga ega (14- rasm).

Demak, farzin shohga nisbatan ancha tezkor! U uzoqdagi raqib donalarini ham bemalol yuta oladi.



14- rasm


Farzin – vertikal, gorizontal va diagonal bo'ylab xohlagan katakkacha yura oladi.

## Rux

**Rux** – faqat vertikal va gorizontal bo‘ylab to‘g‘ri yuruvchi sipohdir. Yozuvda qisqacha **R** harfi bilan belgilanadi.

15-rasmda ruxning harakatlanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Bo‘sh taxtaning qaerida turganligidan qat’i nazar, rux 14 ta xonaga yurishi mumkin.

Rux farzindan deyarli ikki barobar kuchsiz, chunki u qiya yo‘laklar bo‘ylab (farzin singari) yurish huquqidan mahrum. Biroq ikki rux hamjihatlikda yolg‘iz farzindan kuchliroq hisoblanadi.



**15- rasm**


## Fil

**Fil** – diagonal bo‘ylab harakatlanuvchi engil sipoh hisoblanadi. Yozuvda qisqacha **F** harfi bilan belgilanadi. e5 xonasidagi fil faqat a1–h8 va h2–b8 qiya yo‘laklari bo‘ylab istalgan xonaga yurish huquqiga ega (16- rasm).

Raqiblarda o‘yin paytida 2 tadan fil bo‘lib, bulardan biri oq kataklar bo‘ylab, ikkinchisi esa qora kataklar bo‘ylab yuradi.

Oq xonalar bo‘yicha yuruvchi fil – ***oq fil*** deb ataladi.

Qora xonalar bo‘yicha yuruvchi fil esa – ***qora fil*** deb ataladi.




*16- rasm*

11- rasmdagi vaziyatda e5 xonasidagi fil faqat qora xonalar bo‘ylab yura oladi. Markazda turgan fil 13 ta xonaga yurish imkoniyatiga ega. Burchakda turgan fil esa faqat 7 ta katakka yura oladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan shunday xulosa chiqarish mumkin: markaziy xonalarda joylashgan har qanday sipoh – chekka xonalardagi sipohdan kuchliroq.

### Ot

**Ot** – farzin, rux va filga nisbatan boshqacha harakat qiladigan sipoh. U harakatni bir yo‘nalishda boshlab, ikkinchi yo‘nalishda tugatadi. Yozuvda qisqacha **O** harfi bilan belgilanadi. Shaxmat adabiyotlarida: ot – “**G**” harfi shaklida yuradi, – deyilgan (17-rasm):



*17- rasm*

Otning har bir yurishida kataknинг rangи almashadi. Ya’ni, oq xonada turgan ot keyingi yurishda albatta qora xonaga yuradi.

Markazda turgan ot – 8 ta xonaga yura oladi.

Burchakda turgan ot esa faqatgina 2 ta xonaga yurishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, markazzagi ot ko‘p xonalarni o‘z nazoratiga oladi.


Otning yana bir xususiyati – o‘zining va raqibining


donalari ustidan bemalol sakrab o‘ta olishidir. Shaxmatda boshqa hech bir dona bunday imkoniyatga ega emas. Yengil sipohlar turkumiga kiruvchi ot va fil – kuch jihatdan deyarli teng.

### Piyoda

**Piyoda** – shaxmat qo‘shinidagi jangovar askarlardir. O‘yinda tomonlarda 8 tadan jami 16 ta piyoda ishtirok etadi (7-rasm). Ularning boshlang‘ich holati xuddi safda turgan askarlarga o‘xshaydi. Piyodalarni yozuvda ifodalashda faqat turgan xonalarini ko‘rsatish kifoya.


Piyodalarning yurishi o‘ziga xos: u faqat oldinga yuradi (vertikal bo‘ylab). Piyodalar faqat bir xona siljiy oladi. Boshlang‘ich vaziyatda esa ikki xona oldinga yurishi ham mumkin. Bunday imkoniyat piyodaga faqat bir marta, o‘zining boshlang‘ich vaziyatida beriladi (18- rasm):






*18- rasm*

Piyodalar raqib donalarini yutib olishi, shohga “kisht” berishi mumkin. Piyodalarni o‘ylab, ehtiyyotkorlik bilan yurish lozim, chunki ular orqaga yurmaydi va orqadagi donani urib ololmaydi. U qarshisida turgan donani emas, balki qo‘shti vertikaldagi donani qiya (diagonal) shaklda urib olish huquqiga ega (19- rasm):



*19- rasm*


Piyodalarning yana bir xususiyati – **yo‘lda urib olish** qoidasidir. Donalarni urib olish qoidasiga ko‘ra, hamma hollardagidek “yo‘lda urib olish” majburiy emas.



*20- rasm*

**“Yo‘lda urib olish” qoidasi shunday ifoda etiladi:** agar piyoda dastlabki holatidan ikki xonaga yursa va shu bilan raqib piyodasi zarbasi ostida bo‘lgan xonani bosib o‘tsa, unda raqibning piyodasi yo‘li ochiq piyodani yutib olish huquqiga ega (20- rasm).

Piyodaning yana bir xususiyati qiziqarli: u oxirgi qatorga yetib borsa, (oqlarniki sakkizinchiga, qoralarniki birinchiga) yurish chegarasi tugaydi va piyoda – farzinga, ruxga, filga yoki otga “aylanadi”. Piyoda o‘rniga yangi shohni qo‘yish mumkin emas. Bu shaxmat o‘yini qoidasiga zid (21- rasm):



*21- rasm*

Oxirgi qatorga yetib borgan piyodani qaysi sipoh deb e’lon qilish, taxtada qaysi sipoh borligidan qat’iy nazar

o‘ynovchining xohishiga bog‘liq. Shuning uchun taxtada nazariy jihatdan 9 tagacha farzin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, rux, fil va otlarning soni ham cheklanmagan. Oq piyoda o‘rniga oq, qora piyoda o‘rniga esa albatta, qora sipoh qo‘yiladi.

Piyodalar, odatda so‘nggi qatorga yetganda eng kuchli sipoh

– farzinga aylanadi. Lekin shunday vaziyatlar bo‘ladiki, farzin o‘rniga boshqa sipoh, masalan: rux, fil yoki otni qo‘yish foydaliroq.

Piyoda sipohlarning barchasidan kuchsiz. Shunday bo‘lsada, mashhur fransuz shaxmatchisi Fransua Filidor piyodalarga shunday ta’rif bergan: “**piyodalar – shaxmatning jonidir**”.

### **Shohni yashirish – rokirovka**


Donalarning harakatlanish qoidalari bilan tanishib chiqdik. Lekin shaxmat o‘yinida yana bir o‘ziga xos yurish mavjud. Bu katta jang arafasida shohni yashirish, ya’ni “rokirovka” qilish qoidasidir.

Rokirovkada bir yo‘la ikki sipoh – shoh va rux bilan yurish imkoniyati beriladi. Rokirovkani tomonlar o‘yinda faqat bir martadan qo‘llashlari mumkin. Ma’lumki, shoh o‘yin boshida markaziy yo‘lda joylashgan bo‘ladi. Uni qanot (flang)lardan biriga, ya’ni xavfsiz joyga olib o‘tish maqsadga muvofiq. Rokirovka shu maqsadda qo‘llaniladi.

### **Rokirovkaning 2 xil turi mavjud :**

- 1. Kichik rokirovka** – shoh qanoti tomonga bajariladi.
- 2. Katta rokirovka** – farzin qanoti tomonga bajariladi.


Kichik rokirovka quyidagicha amalga oshiriladi (22-rasm):



*22-rasm*

Kichik rokirovkadan oldingi holat keyingi holat Shohni boshlang‘ich holatdan bir xona tashlagan holda keyingi xonaga, ruxni esa shohning boshqa tomonidagi xonaga olib o‘tib yonma-yon qo‘yiladi. Rokirovka qilganda avval shoh, so‘ngra rux joyidan qo‘zg‘atiladi. Rokirovkani ikkala tomonga ham qo‘llash mumkin.

Katta rokirovka quyidagicha amalga oshiriladi (23- rasm).



*23- rasm*

Katta rokirovkadan oldingi holat keyingi holat

**Rokirovka qilish quyidagi hollarda mumkin emas:**

1. Rokirovka vaqtida shoh va rux orasida o‘zining yoki raqibining sipohi turgan bo‘lsa.
2. Rokirovkada qatnashadigan shoh yoki rux yurgan

bo‘lsa (avval yurib, keyin yana joyiga qaytib kelgan bo‘lsa ham).

3. Shohga kisht berilgan paytda.
4. Rokirovka qilingach, shohiga kisht bo‘lib qolsa.
5. Shoh (faqatgina shoh) rokirovka paytida raqib donalarining zarbasi ostidagi xonadan o‘tsa.

### **2.3. O‘yin qoidalari**

Shaxmat o‘yini oq va qora donalarning kurashiga asoslangan.

O‘ynovchi tomonlardan biri oq, ikkinchisi qora donalarni boshqaradi. Ularni raqiblar deb ataymiz. Odatda, shaxmat o‘yini ikki raqib o‘rtasida o‘ynaladi. Dastlab tomonlarda kuchlar teng, ya’ni 16 tadan dona bo‘ladi.

O‘yinda tomonlar navbat bilan yurishadi. O‘yinni oqlar boshlaydi. Qoralar javob yurishini amalga oshiradi. Yurish galida faqat bitta dona yurish mumkin (rokirovka qoidasi bundan mustasno).

Yurish galini o‘tkazib yuborish yoki yurishni qaytarib olish taqiqlanadi (bu o‘yin qoidasiga zid).

Shaxmat donalari nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki harakat qoidalari, kuchi bilan ham farqlanadi.

O‘yinning eng muhim donasi – shoh hisoblanadi.

Agar shoh yurish imkoniyatlariga ega bo‘lmasa, ya’ni kisht berilganda mot bo‘lsa, shu tomon o‘yinni yutqazgan bo‘ladi. Shuning uchun shoh doimo himoyalanadi.

Shaxmat o‘yining bosh maqsadi shu asosda qurilgan.

Tomonlardan biri o‘yin holatiga qarab, shohi mot bo‘lmasadon oldinroq o‘zini yutqazgan hisoblashi, ya’ni taslim bo‘lishi mumkin. Raqiblar o‘zaro kelishgan holda ma’lum vaziyatda (imkoniyatlar baravar bo‘lsa), o‘yinni durang hisoblashlari ham mumkin.

Musobaqa vaqtida yutgan tomonga 1 ball, yutqazgan tomonga 0 ball beriladi. O‘yin durang natija bilan tugasa, ball ikki tomonga

bo‘linadi, ya’ni 0,5 balldan beriladi.

O‘yin uchun ajratilgan muddat – ***nazorat vaqt*** deyiladi. Shaxmatda o‘ylash vaqtini chegaralash uchun musobaqalarda maxsus soatlar qo‘llaniladi. Vaqt ikkala tomon uchun birdek taqsimlanadi, nazorat vaqt turlicha bo‘lishi mumkin.

O‘yin uchun ajratilgan vaqt davomida raqiblardan biri o‘z vaqtini tugatib qo‘ysa, shu tomon o‘yinni yutqazgan hisoblanadi.

Rasmiy musobaqalarda (ba’zan oddiy o‘yinlarda) yurishlar yozib boriladi. Vaqt tang holatlarda (seytnot holatida) yozish vaqtincha to‘xtatilishi mumkin.

O‘yin vaqtida raqibga turli yo‘llar bilan xalaqit berish, aytaylik, gapirish, stolni chertish kabilar taqiqlanadi. Shaxmat insonni sabr-toqatli, intizomli va irodali bo‘lishga o‘rgatadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan qoidalardan tashqari, musobaqalarda (turnir va matchlarda) yana quyidagi qoidalar ham borki, ularga rioya qilish ham majburiy:

1. Kim o‘zining qaysi donasini ushlasa, o‘sha donani yurishga majbur bo‘ladi. Buni “*ushlaganni yurish*” deyiladi.
2. Kimki raqib donalarini birini ushlasa, o‘sha donani urib olishga majbur bo‘ladi.
3. Donani bir xonadan ikkinchi xonaga olib qo‘yib, undan qo‘l uzgandan keyingina yurish qilingan hisoblanadi.
4. Agar donalarni katakchalarga to‘g‘rilab qo‘yish zarurati tug‘ilsa, unda “*to‘g‘rilayapman*” deb ogohlantirish kerak.
5. Donani qaysi qo‘l bilan yursa, soatni ham shu qo‘l bilan bosish kerak. Shaxmatni ikki qo‘lda o‘ynash qoidaga zid.
6. Tomonlar bir-birining shohiga hujum qilganda, “*shoh*” deb aytishlari shart emas, o‘ynovchilarning o‘zлari ko‘rishlari kerak.

Shaxmat o‘rganuvchilarga musobaqalarda o‘ynagan partiyalarini yozib borishga odatlanish tavsiya qilinadi. Chunki ular

tomonidan qo‘yilgan xato va kamchiliklar murabbiy tomonidan tushuntirilishi kerak. Bu bilan ular o‘z o‘yinlarini tahlil qiladi, yo‘l qo‘ygan xatolarini topadi va tuzatadi.

## 2.4. Shaxmat notatsiyasi

Shaxmat taxtasidagi har bir xona o‘z nomiga, har bir sipohesa o‘zining qisqa ifodasiga ega. Maxsus belgilar yordamida partiya, ya’ni taxtadagi sipohlarning yurishi yozib boriladi. Bunday yozib borish – *shaxmat notatsiyasi* deyiladi.

Uning yordamida turli vaqtarda turli shaxmatchilar tomonidan o‘ynalgan partiyalarini o‘qish va o‘z partiyalarini yozib borish mumkin.

Xonalar va sipohlar ifodasini bilib, har qanday vaziyatni osongina yozib olasiz. Partiyani yozib olish uchun avval yurish raqami, keyin donalarning qisqacha belgisi hamda katakning nomi ifodalanadi.

Shaxmat adabiyotlaridan foydalanganimizda bir qancha qisqa belgilarga duch kelamiz. Ular bilan tanishamiz.

### Qisqa belgilar:

1. (–) – yurish
2. (:) – urish
3. (+) – shoh
4. (++) – ikki yoqlama shoh
5. (x) – mot
6. (0–0) – kichik rokirovka
7. (0–0–0) – katta rokirovka
8. (!) – yaxshi yurish
9. (!! ) – kuchli yurish
10. (?) – yomon yurish
11. (??) – qo‘pol xato
12. (+ –) – oqlarda ustunlik

**13. (– +) – qoralarda ustunlik**

**14. (=) – vaziyat teng**

### **Shaxmat o‘yinini chuqur o‘rgatish va uni tahlil qilish**

Shaxmat o‘yinini chuqurroq o‘rganish uchun – donalarning bir-biriga nisbatan kuchini, hujum qilish va himoyalanish usullarini, o‘yin davomida aniq va to‘g‘ri reja tuzishni bilish kerak.

#### **Donalarning nisbiy kuchi**

Shaxmat taxtasidagi kurash – raqiblarning bir-biriga hujum qilishi va hujumdan himoyalanish tarzida davom etadi. Ana shunday hujum qilish hamda himoyalanish paytida donalar almashtirib turiladi va natijada, ustunlikka erishgan tomon g‘alaba qiladi. Demak, donalarni almashtirishdan oldin ularning bir-biriga nisbatan kuchini bilish kerak. Aks holda, almashtirish yordamida foyda qilaman deb zarar ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, donalar qanchalik harakatchan bo‘lsa, ularning kuchi ham shunchalik zo‘rayadi. Lekin shuni aytish kerakki, donalarning bir-biriga nisbatan kuchi hamma vaqt ham bir xil bo‘lavermaydi. Shaxmat o‘yinida donalarning quyidagi qiymat birligi mavjud:

- 1. Farzin – 9 ball.**
- 2. Rux – 5 ball.**
- 3. Fil – 3 ball.**
- 4. Ot – 3 ball.**
- 5. Piyoda – 1 ball.**

Ushbu qiymat birligini hisobga olib, shaxmatchilar donalarning qaysi birini qay holatda boshqasiga almashtirish kerakligini bilib oladilar. Agar taxtadagi mavjud donalarning bir-biriga nisbatan kuchi bo‘yicha bir tomon ikkinchisidan yuqori bo‘lsa, o‘sha tomon *donalar ustunligiga erishdi* deyiladi.

Bunday ustunlik deyarli hamma vaqt yutuqqa zamin bo‘ladi.

Ustunlik 2 xil:

1. **Moddiy ustunlik** – donalar soni jihatidan.
2. **Vaziyat ustunligi** – donalar joylashuvi jihatidan.

## **2.5. Hujum qilish va himoyalanish**

Shaxmat o‘yinida hujum qilish va himoyalanish mavjud. **Hujum qilish** deganda – keyingi yurish bilan raqibning biror-bir donasini urib olish xavfi tushuniladi.

Raqib donasini yo‘qotish uchun unga hujum qilish kerak. Hujum bir tomonlama yoki o‘zaro bo‘lishi mumkin. Hujum qilish va himoyalanish hamda donalarni almashtirish paytida ularning bir-biriga nisbatan kuchini hisobga olish zarur. Hujum qilganda shaxmatchi o‘z shohining xavfsizligini ham unutmasligi kerak. Bu narsa shaxmatda juda muhim.

Hujum qilinganda himoyada turgan tomon quyidagi usullardan birini qo‘llashi mumkin:


- 1) hujum qilayotgan sipohni yo‘q qilish (olish);
- 2) hujum qilingan sipohni himoya qilish;
- 3) o‘z sipohi bilan raqib sipohiga hujum qilish;
- 4) o‘z sipohi bilan zARBADAN ketish;
- 5) hujum qilayotgan sipohning yo‘lini to‘sish.

Shaxmatchi o‘z tajriba va bilimiga suyanib, himoyalanishning turli imkoniyatlaridan o‘ziga foydali deb bilganini tanlaydi.

**Himoya** – hujum qilingan sipohni olish foydali bo‘lmay qoladigan javob yurishidir.


### **2.5.1. Ikki yoqlama zarba**

Shaxmat o‘yinida shunday bir yurish borki, unda sipoh bir vaqtning o‘zida raqibning ikki donasiga birvarakayiga hujum qiladi. Bunday yurishga – *ikki yoqlama zarba* deyiladi (24 a,b - rasmlar):



24 a,b - rasm

Quyida sizga “*ikki yoqlama zarba*” mavzusiga doir bo‘lgan misollardan namuna keltiramiz. Taxtada yuzaga kelgan vaziyatga hamda amalga oshirilgan kombinatsiyaga diqqat bilan e’tibor qiling (25 a,b- rasmlar):



25 a,b- rasm

### 2.5.2. O‘yindagi reja haqida tushuncha


Shaxmat taxtasida vujudga keladigan cheksiz o‘zgarishlar, o‘ynovchilar qiladigan yurishlar natijasi bo‘lib, bu yurishlar tasodifiy emas. Har bir yurish qandaydir afzallikka erishishni, ularning yig‘indisi esa g‘alaba qozonishdan iborat bo‘lgan umumiyl maqsadni ko‘zlaydi. Umuman rejasisiz o‘ynagandan ko‘ra, xato bo‘lsa ham rejali o‘ynagan yaxshi.

Ma’lum maqsadlarni ko‘zda tutgan bir necha yurishlar o‘yin rejasisini tashkil etadi. Reja oldindan tuziladi va bu – *shaxmat strategiyasi* deb ataladi. Bu rejani amalga oshirish esa – *shaxmat taktikasi* hisoblanadi.

**Strategiya** – maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligini, qanday vazifalarni hal qilish lozimligini aniqlab beradi. Maqsadni amalga oshirishdagi bosqichlar – taktikadir.

**Taktika** – har bir vazifani taxtada vujudga kelgan muayyan vaziyatlarga qarab hal qiladi, ya’ni o‘ynovchi eng yaxshi yurishlarni tanlab, ularni izchil ravishda amalga oshiradi. 26 a,b - rasmlardagi masalalarda oqlar boshlab g‘alaba qozonadi. Javobni topishga harakat qilib ko‘ring.

Izchil davom ettirilgan har bir shaxmat partiyasi strategiya va taktikaning birligidan namunadir. Shaxmatchi o‘yining ma’lum bir bosqichida vaziyatni tahlil qilish yo‘li bilan strategik reja tuzadi va keyinchalik uni zarur taktik vositalar yordamida amalga oshiradi. Uning analitik qobiliyati qanchalik zo‘r bo‘lsa, rejasi shunchalik ta’sirchan va natija ko‘ngildagidek bo‘ladi.



**26 a,b - rasm**

Shaxmatchilar mashg‘ulot davomida o‘yin uslubini chuqur- lashtirib boradi. Shaxmat nazariyasiga doir bilimlarini amalda qo‘llash uchun ular o‘rtasida o‘rtoqlik uchrashuvlari o‘tkaziladi. Ular o‘ynagan partiyalarini yozib borishlari kerak. Barcha partiyalar murabbiy va to‘garak a’zolari bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Shaxmat adabiyotlaridan taniqli grossmeyster va jahon

championlari o‘ynagan partiyalarni vaqtı-vaqtı bilan tahlil qilib borish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Chunki bunday tahlillar shaxmatchining vaziyatga to‘g‘ri baho bera olishiga katta yordam beradi.

Nazariya va amaliyot uyg‘unlashsa, shaxmatchilar malakasi oshib boradi va musobaqalarda yaxshi natijalar ko‘rsatisha- di. Chunki bu tajribada bir necha marta qo‘llanilgan va o‘z isbotini topgan usuldir.

### **2.5.3. Kisht berish va mot (og‘ir sipohlar bilan)**


Shaxmat o‘yinidagi bosh maqsad – raqib shohini mot qilishdan iborat. O‘yin davomida shohdan boshqa barcha sipoh va piyodalar yutib olinishi mumkin.

Shohga hujum qilinganda himoyalanishning iloji bo‘lмаган holat – **MOT** deb ataladi. Bu – shoh mag‘lub bo‘lganini, o‘yin yakunlanganligini anglatadi.

Yaxshi shaxmatchi reja asosida o‘ynaydi. Shunda betakror yurishlarni topish osonlashadi. Endi farzin bilan mot qilish rejasini tuzib chiqamiz:

1. Raqib shohini farzin yordamida “*ot yurishi*” shaklida taxtaning ixtiyoriy bir burchagiga siqib boriladi.
2. Farzin raqib shohiga 2-3 katakni harakat uchun qoldirgan holda, chetki vertikal yoki gorizontalda ushlab turadi.
3. Kuchli tomonning shohi o‘z farzini tomon yordamga boradi va raqib shohi farzin yordamida mot qilinadi (27- rasm):


## Farzin bilan mot qilingan holat:



27- rasm

## Ikki rux bilan mot qilish

Ikki rux shohni o‘z shohining yordamisiz ham mot qila oladi. Ruxlar galma-gal kisht berib, qora shohni taxtaning chekkasiga siqib boradi. Bu mot – *chiziqli mot* deyiladi (28- rasm). Bunday mot qilish usulini – “*oyoqcha shaklida mot qilish*” deb ham atashadi.



28- rasm

Yolg‘iz shohni bitta rux bilan mot qilish bir oz murakkabroq. Unda shohning yordami kerak bo‘ladi. Mot har galgidek taxta chetida qo‘yiladi. Lekin raqib shohni qanday qilib “quvib” borish mumkin? Buning uchun “qarshi holat” (oppozitsiya) usulidan foydalanamiz.

Shoxlarning bir-biriga qarama-qarshi turishi, ya’ni ular bir

gorizontalda yoki bir vertikalda joylashgan bo‘lib, ularni bir xona ajratib turgan holat – *qarshi holat* (*oppozitsiya*) deyiladi.

### Oppozitsiya 3 xil bo‘ladi :


- 1) **kichik oppozitsiya** – (ikki shoh orasidagi masofa – 1 katak bo‘ladi);
- 2) **o‘rta oppozitsiya** – (ikki shoh orasidagi masofa – 3 katak bo‘ladi);
- 3) **katta oppozitsiya** – (ikki shoh orasidagi masofa – 5 katak bo‘ladi).

Oppozitsiya holati shaxmat o‘yinida katta ahamiyatga ega. Chunki o‘yin oxirida ustunlik oppozitsiyani egallagan tomonda bo‘ladi.

Bir rux bilan mot qilganda – shoh bilan rux bиргаликда harakat qilishi kerak. Raqib shohini taxtaning chekka xonasiga majburiy ravishda siqib boriladi va mot qo‘yiladi (29- rasm).

E’tibor qiling, mot bo‘lgan vaziyatda ikki shoh oppozitsiya holatida turibdi, bu juda ham muhim.


### Bir rux bilan mot qilingan holat:



29- rasm

## **Ikki fil bilan mot qilish**

Ikki fil shoh yordamida yakka shohni mot qila oladi. Ammo u farzin va ruxlar bilan mot qilishdan ko‘ra ancha murakkabroq. Biroq bunda ham raqib shohini taxta chetiga siqib borish yo‘li bilan erishiladi (30- rasm).



*30- rasm*

1. Fg2–f3!

Fil raqib shohini harakat doirasini siqib qo‘ydi. Endi qora shoh fillarning oldiga yaqinlasha olmaydi.

1. ... SHf5–e5

2. SHs4–s5 SHe5–f5 3. SHs5–d6!

“Ot yurish” usuli ham bu vaziyatda ish beradi. 3. ... SHf5–f6

4. Ff3– g4 SHf6–g6

5. SHd6–e7! SHg6–g7

6. Fg4–h5

Uchburchak torayib bormoqda. Faqat pot vaziyatlaridan ehtiyyot bo‘lish kerak.

6. ... SHg7–h7

7. SHe7–f7 SHh7–h8

8. Fs1–g5 SHh8–h7

9. Fh5–g6+ SHh7–h8


10. Fg5–f6x

E’tibor bering. Oq fillarning harakati qat’iy rejaga asoslandi. Har bir yurish esa aniq bir maqsadni ko‘zлади.

## **Ikki ot shohga qarshi**

O‘yin oxirida ikki ot yakka shohga qarshi qolganda, to‘g‘ri himoya yordamida kuchsiz tomon durang qila oladi.

31- rasmdagi vaziyatda qora shoh taxtaning burchagiga siqib borilgan. Biroq mot qilishning hech iloji yo‘q.



*31- rasm*


Aytaylik, e7 xonasida turgan ot bilan s6 xonasiga yurib qora shohga kisht berildi. Agar shoh qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yib, burchakdagi a8 xonasiga yursa, unda ikkinchi ot bilan f7 xonasidan mot qilsa bo‘ladi.

1. Oe7–s6+ SHb8–a8 ??
2. Oe6–s7x

Lekin qoralar shohini s8 xonasiga yurishi va ozodlikka chiqishi mumkin. Endi qora shoh mot bo‘lmaydi.

1. ... SHb8– s8!

Ba’zan kuchsiz tomonga o‘zining piyodasi xalal beradi (32- rasm).



*32- rasm*

- a) 1. Ohf5! – h4 2. Od4 – h3 3. Oc6 – h2 4. Ob5 – h1F 5. Os7x

yoki


- b) 1. Ohf5! – SHb8 2. Od4 – SHa8 3. Oc6 – h4 4. Ob5 – h3  
5. Os7x

Agar h5 xonasidagi piyoda bo‘lmasa, o‘yin pot, ya’ni durang bo‘lardi. Lekin qoralar yolg‘iz piyodasini surishga majbur. Bu esa motga olib keladi. Qora piyodaning yurishlari xato emas, balki nochorlikdir. Yurish navbatida foydasi bo‘lmasa ham yurish zarur. O‘yining qoidasi shunaqa. Bunday nochor vaziyatlarda majburiy yurish qilish – *sugsvang holati* deyiladi.

### **Ot va fil bilan mot qilish**

Ikki yengil sipoh – ot va fil yakka shohni mot qila oladi. Buning uchun kuchli tomonning fili qaysi rangda bo‘lsa, kuchsiz tomonning shohi shu rangdagi burchakka quvib boriladi.

Taxtada oq katakli fil bo‘lsa, h1 va a8 xonalarida, qora katakli fil qolsa, a1 va h8 xonalarida mot bo‘ladi. Bu murakkab usul bilan tajriba va malaka oshgach, tanishib chiqish tavsiya qilinadi. Hozircha kuchsiz tomonning shohi burchakda joylashgan holatda mot qilish yo‘lini ko‘rib o‘tamiz (33- rasm).





*33- rasm*

1. SHh7 2. SHf7 – SHh8 3. SHg6 – SHg8 4. Oh6+ SHh8 5. Ff6x

Yakka shohni kerakli burchakka jalb qilish oson ish emas. Hatto, taniqli shaxmatchilar orasida ham bu vazifani uddalay olmaganlari bor. Shaxmat qoidasiga ko‘ra, bunday vaziyatlarda 50 yurish davomida mot qo‘ya olmasangiz, o‘yin to‘xtatiladi va durang natija qayd etiladi.

### Pot

Shaxmat partiyasida yana bir durang holatini ko‘rib chiqamiz. Taxtadagi shohga hujum bo‘lmagan va sipohlarning hech birini yurish yo‘li bo‘lmagan holati – **pot** deb ataladi (34 a,b- rasmlar):



*34 a,b- rasm*

Bir qarashda nohaqlikdek tuyuladi, lekin shaxmat qoidalariga to‘la mos keladi. Vaziyatdagi muhim xususiyat shundaki, qora shoh atrofidagi barcha kataklar hujum ostida, lekin shohning o‘zi daxlsiz, ya’ni unga “kisht” e’lon qilinmagan. Shohning esa yuradigan yo‘li yo‘q.

Shaxmatda ba’zan shunaqasi ham bo‘lib turadi. U o‘z kuchingiz va imkoniyatlaringiz bilan maqtanmaslikka o‘rgatadi. Har qanday ishda diqqat, aniq hisob zarur. Ehtiyyotsizlik, pala-partishlik hayotda ham, shaxmatda ham muvaffaqiyat keltirmaydi.


### Kishti qoyim

Shaxmat o‘yini har doim ham tomonlardan birining g‘alabasi bilan yakunlanmaydi. Boshqa sportda bo‘lgani kabi durang natija bo‘lishi mumkin, ya’ni hech kim g‘alabaga erishmaydi.

**“Kishti qoyim”** – bu raqib shohi berkina olmaydigan va ketma-ket bir necha marta shoh berishdir.

35 a,b - rasmlardagi vaziyatda qora shoh hech qayerga berkina olmaydi. Qoralar durangga majburiy rozi.

Shaxmatda “kishti qoyim” natijasidagi durang shunga o‘xshagan vaziyatlardan biri bo‘lishi mumkin.



35 a,b- rasm

**Yana quyidagi holatlarda ham o‘yin durang hisoblanadi:**

- shaxmat taxtasida faqatgina yakka shohlar qolganda;

b) o‘ynayotgan tomonlarning har birida bittadan yengil sipoh qolganda;

v) raqiblarning birida mot qo‘yish uchun yetarli ustunlik bo‘lmaganda, ya’ni, shoh va fil shohga qarshi yoki shoh va ot shohga qarshi bo‘lgan holatlar;

g) ikki tomonning roziligi bilan durang qilish ham mumkin.

## **2.6. O‘yinni qanday boshlash kerak?**

Hurmatli o‘quvchi! Siz shaxmatning boshlang‘ich qoidalari va mot qilish usullari bilan tanishdingiz. Demak, endi siz shaxmat o‘ynashni o‘rgandingiz.

Qiziqarli va aqlli o‘yin – shaxmatni yaxshi o‘zlashtirish, yuqori natijalarga erishish uchun yana nimalarga e’tibor berish darkor? O‘yin boshida qanday yurishlar qilish kerak? Bu savollar har bir havaskor shaxmatchini o‘ylantiradi.

Ma’lumki, o‘yin boshida ikki tomonda ham imkoniyatlar teng bo‘ladi. Oq va qora donalar teng hududga, simmetrik holatga ega bo‘ladi. To‘g‘ri, oqlar kichik ustunlikka ega. Bu birinchi bo‘lib yurish huquqidir.

O‘yinlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxmat ustalarining uchrashuvlarida oqlarning ustunligi ma’lum vaqt sezilib tursada, bora-bora qoralar o‘yinni tenglashtirishi mumkin.

Qaysi donalarda o‘ynashidan qat’iy nazar, bilimi va mahorati ustun o‘yinchi g‘alaba qozonadi. Amalda o‘ynalgan juda ko‘p o‘yinlarning natijasi nazariy tekshirishlarda debyut variantlari va vaziyatlari “sir”lari ochilgan.

Shaxmatda vaqt yurishlar soni bilan belgilanadi. Shunday ekan, debyutdagi asosiy maqsad – markazni egallash, qisqa muddatda ko‘proq kuchni harakatga keltirish va raqibga qiyinchiliklar tug‘dirishdan iboratdir.

## O‘yining boshlanish qismi

Shaxmat o‘yinidagi debyut yurishlar asosan 1. e2–e4 va 1. d2–d4 tarzida uchraydi. Ular ortidan esa yengil sipohlar – otlar va fillar tezroq o‘yinga chiqariladi.

Otlar uchun eng harakatchan xonani to‘g‘ri tanlash ham muhim. Bular – f3 va s3 xonalaridir.

Sipohlarni qulay xonalarga joylashtirishda kechikish mag‘lubiyatga yetaklashi mumkin. Maydonda qancha ko‘p sipoh bo‘lsa, o‘yin shuncha qiziqarli bo‘ladi. Shuning uchun bir sipoh bilan bir necha marta yurmaslik kerak.

Muhimi shohingiz xavfsizligini ta’minlashni, ya’ni imkon qadar tezroq rokirovka qilishni unutmang!

Keyingi rejalar og‘ir sipohlar – farzin va ruxlarni qulay xonalarga joylashtirishdan iborat bo‘ladi.

**Debyutlar** odatda, 8–12 yurishni o‘z ichiga oladi.

Har bir debyutning o‘z nomi bor. Masalan: “Italyancha partiya”, “Ispancha partiya”, “Fransuzcha himoya”, “Sitsiliancha himoya” ... va hokazo.

Mahoratlari shaxmatchi bo‘lish uchun ko‘proq debyutlarni bilish kerak. Lekin, muhimi o‘yin boshidagi asosiy qoidalarga amal qilish va qo‘llashdir. Shaxmatchining malakasi oshgan sayin o‘z o‘yin uslubiga xos bo‘lgan debyutlarni mukammalroq o‘rganishi talab etiladi.

Bundan tashqari debyutda o‘yinga chiqarilgan sipohlarning hujumga tayyorligini hisobga olib, ular yordamida kombinatsiyalar va faol yurishlarni amalga oshirish yo‘llarini izlab topish kerak.

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarga asoslanib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin.

Debyutda asosan uchta qoidaga amal qilish kerak:

1. Markazni egallash.

2. Engil figuralarni o‘yinga chiqarish.

### 3.Tezroq rokirovka qilish.

O‘yining boshlanishi uch qoidaga amal qilingan holda boshlansa, taxtada yaxshi vaziyat yuzaga keladi.

### **Mittelshpilda nima qilish kerak?**

Debyutdan keyin asta-sekin o‘yin o‘rtasi – *mittelshpil* boshlanadi.

**Mittelshpil** – shaxmat o‘yinining asosiy qismi. Unda oqlar va qoralarning harakatdagi qo‘smini – sipohlarning asosiy jangi sodir bo‘ladi.

Mittelshpilning murakkabligi shuki kurashda ishtirok etayotgan sipohlar va piyodalarining barchasini bir xil boshqarish zarur.

Shaxmatchilarning fikriga qaraganda sipohlar bir- birlariga yordam berishi o‘zaro bog‘liqlikda harakat qilishga intilishi zarur. Mittelshpilda raqibning fikrini payqash va reja bo‘yicha o‘ynashga harakat qilish kerak.

Shaxmatda reja – bu kamida yaqin 3–4 yurishning oldindan hisoblanishi. Reja tuzish malakasi amaliyot va tajriba asosida shakllanadi. Shuning uchun ko‘proq o‘ynash va mag‘lubiyatlardan qo‘rmaslik kerak... Xatosiz o‘ynaydigan va o‘yinni yutqazmagan shaxmatchi jahonda hali bo‘lmagan. Mag‘lubiyat sizni hushyorlikka, xatolarni takrorlamaslikka o‘rgatadi.

### **Bir necha foydali maslahatlar:**

- a) faol, ijodiy va sabot bilan o‘ynang;
- b) ko‘p sipohlaringiz kurashda ishtirok etishiga harakat qiling;
- c)raqibning imkoniyatlarini inobatga oling, shundan so‘ng o‘z rejangizni tuzing.


O‘yining mittelshpil qismida vujudga keladigan vaziyatlarda shaxmatchi ko‘proq bosh qotirishi kerak. Shuning uchun debyutda o‘yining strategik rejasini tuzish katta ahamiyatga ega.

Mittelshpilda tashabbusga erisha olish yoki erisha olmaslik ham aynan shunga bog‘liq.

### **Endshpilda qanday o‘ynash kerak?**

Har bir o‘yin o‘rtasida, ya’ni taxtada sipohlar ko‘p bo‘lganida aksariyat holatlarda raqib shohiga mot qo‘yib bo‘lmaydi. Sipohlar ko‘pchiligi almashtirilganda partiya endshpilga o‘tadi. Kuchlar cheklanganligi sababli mot qilish qiyin. Piyodani farzinga olib chiqish g‘alabaga yetaklaydi. Bu yerda ham ko‘p bilim talab qilinadi.

Shoh bilan piyoda shohga qarshi qolgan holatdagi eng oddiy partiya yakunini ko‘rib chiqamiz (36- rasm):



*36- rasm*

Endshpillarning ko‘pchiligidagi mavjud bo‘ladigan asosiy vaziyatlar shunday bo‘ladi. Uni yaxshi eslab qolish kerak. Bu yerda natija yurish navbatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar yurish qoralardan bo‘lsa, oqlar g‘alaba qozonadi, yurish oqlardan bo‘lsa, o‘yin durang bilan yakunlanadi.

**Qoida quyidagicha:** agarda piyoda oxiridan ikkinchi qatorga (gorizontal bo‘yicha 2 va 7) shoh e’lon qilmay turib olsa, piyoda farzinga chiqadi. Aks holda g‘alaba bo‘lmaydi.

**Tekshirib ko‘ramiz.** Agar yurish oqlardan bo‘lsa, 1. d7+

SHd8. Piyodani yo‘qotishni xohlamaysiz, bu holda darhol durang bo‘ladi. Oqlar yurishi kerak. 2. SHd6. Bu pot – ya’ni durang.

Ayyorlik qilishga urinib ko‘rish mumkin.

1. SHe5 SHd7

2. SHd5. Endi qoralar juda hushyor bo‘lishi va qoidani esda saqlashi kerak. 2. SHd8 o‘ynalsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, 3. SHs6–SHs8, yoki 3. SHe6–SHe8 yurib, oppozitsiyani qoralar egallaydi va o‘yin durang bo‘ladi.

Qoralarning 2. ... SHs8 yoki SHe8 yurishdagi xatolaridan keyin oqlar SHs6 yoki SHe6 o‘ynaydi. Endi qoralarning yurish navbatи bilan dastlabki holat kelib chiqadi, bu mag‘lubiyatdir. 1. SHd8 2. d7 SHs7 3. SHe7 va piyoda farzinga chiqadi.

### **Endshpil turlari va qoidalari**

Agar taxtada sipohlar kam qolib, shohga uncha katta xavf–xatar tug‘dirmasa, bu – o‘yining oxiri, ya’ni **endshpil** qismi hisoblanadi.

Shaxmatda turli o‘yin oxirlari yuzaga keladi.

Bular: **a)** farzinli; **b)** ruxli; **c)** filli; **d)** oqli; **e)** piyodali.

Bu kabi o‘yin oxirlarini g‘alaba bilan yakunlash uchun endshpilning uchta qoidasiga amal qilish muhim.

#### **Endshpilning birinchi qoidasi:**

Shoh – faol hujum qiladigan sipohdir. Ha, butun o‘yin davomida qo‘riqlangan shohning o‘zi endi hujumga o‘tadi. Mana shu qoida ko‘pincha piyodali endshpillarda o‘z isbotini topadi.

#### **Endshpilning ikkinchi qoidasi:**

Har qaysi sipohning faolligi va harakat doirasining kengligi. Endshpilda kam sipoh qolsa, uning qiymati ham yuqori bo‘ladi, ya’ni o‘yin oxirida taxtada mavjud bo‘lgan barcha kuchlarni faollashtirish va ularning harakat doirasini kengaytirish lozim.

#### **Endshpilning uchinchi qoidasi :**

Piyodalar joylashuvi katta rol o‘ynaydi. Ko‘pgina

endshpillarda piyodalarning qay tartibda joylashishi o‘yining taqdirini hal qiladi.

Yakka va qavat piyodalar – vaziyatning nuqsonidir. Endshpilda asosan shu uch qoidaga amal qilish kerak. Bulardan tashqari endshpilning bir qancha kichik qoidalari ham borki, ular bilan shaxmatchilar amaliy o‘yin davomida duch keladilar.

Izoh tariqasida shuni aytib o‘tish kerakki, o‘yin oxirlashgan sayin piyodalarning kuchi ortadi. Istagan yengil sipohni uch piyodaga almashtirsa bo‘ladi, sababi o‘yin oxirida uch piyoda – fildan ham, otdan ham kuchli hisoblanadi.

## 2.7. Shaxmat o‘yining bo‘linishi

Shaxmat o‘yini 3 qismga bo‘linadi:

1. **Debyut** – o‘yining boshi.
2. **Mittelshpil** – o‘yining o‘rtasi.
3. **Endshpil** – o‘yining oxiri.

Debyutlarning o‘zi ham 3 qismga bo‘linadi:

1. **Ochiq debyutlar**
2. **Yarim ochiq debyutlar**
3. **Yopiq debyutlar**

Umumlashtirgan holda aytadigan bo‘lsak, shaxmat o‘yinida 50 dan ortiq debyut turkumi bor. Ular bilan birma-bir tanishib chiqamiz:

### Ochiq debyutlar mundarijasi:

1. Shoh gambiti – (e4 – e5, **f4** – ...)
2. Folkbeer kontrgambiti – (e4 – e5, f4 – **d5**, ...)
3. Venacha partiya – (e4 – e5, **Oc3** – ...)
4. Fil debyuti – (e4 – e5, **Fc4** – ...)
5. Pansian debyuti – (e4 – e5, Of3 – Oc6, **c3** – ...)
6. Markaziy debyut – (e4 – e5, **d4** – ed, **Fzd4** – ...)
7. Markaziy gambit – (e4 – e5, d4 – ed, **Fc4** – ...)

8. Latish gambiti – (e4 – e5, Of3 – **f5**, ...)
9. Shotlandcha partiya – (e4 – e5, Of3 – Oc6, **d4** – ed, **Od4** – ...)
10. Shotlandcha gambit – (e4 – e5, Of3 – Oc6, d4 – ed, **Fc4** – ...)
11. Filidor himoyasi – (e4 – e5, Of3 – **d6**, ...)
12. Ruscha partiya – (e4 – e5, Of3 – **Of6**, ...)
13. Uch ot debyuti – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Os3 – **Fc5**, ...)
14. To‘rt ot debyuti – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Os3 – **Of6**, ...)
15. Vengercha partiya – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Fc4 – **Fe7**, ...)
16. Italianancha partiya – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Fc4 – **Fc5**, ...)
17. Ikki ot himoyasi – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Fc4 – **Of6**, ...)
18. Traksler kontratakasi – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Fc4 – Of6, Og5 – **Fc5**)
19. Ispancha partiya – (e4 – e5, Of3 – Oc6, **Fb5** – ...)
20. Marshall kontratakasi – (e4 – e5, Of3 – Oc6, Fb5 – a6, Fa4 – Of6, 0 – 0 – Fe7, Re1 – v5, Fv3 – 0 – 0, s3 – **d5**, ...)

### **Yarim ochiq debyutlar mundarijası:**

1. Fransuzcha himoya – (e4 – **e6**, ...)
2. Pirsa – Ufimsev himoyasi – (e4 – **d6**, ...)
3. Karo – Kann himoyasi – (e4 – **s6**, ...)
4. Ikki yoqlama fianketto – (e4 – **v6**, ...), (e4 – **g6**, ...)
5. Skandinaviya himoyasi – (e4 – **d5**, ...)
6. Sitsiliancha himoya – (e4 – **s5**, ...)
7. Alyoxin himoyasi – (e4 – **Of6**, ...)
8. Nimsovich debyuti – (e4 – **Oc6**, ...)

### **Yopiq debyutlar mundarijası:**

1. Farzin gambiti – (d4 – d5, **c4** – ...)
2. Albin kontrgambiti – (d4 – d5, c4 – **e5**, ...)
3. Chigorin himoyasi – (d4 – d5, c4 – **Oc6**, ...)
4. Kapablanka sistemasi – (d4 – d5, c4 – **e6**, ...)
5. Slavyancha himoya – (d4 – d5, c4 – **c6**, ...)

6. Kataloncha boshlanish – (d4 – d5, c4 – e6, **g3** – ...)
7. Yangi hindcha himoya – (d4 – Of6, c4 – e6, **Of3** – ...)
8. Blyumenfeld gambiti – (d4 – Of6, c4 – e6, Of3 – c5, d5 – **b5**)
9. Ragozin himoyasi – (d4 – d5, c4 – e6, Oc3 – Of6, Oc3 – **Fb4**)
10. Nimsovich himoyasi – (d4 – Of6, c4 – e6, Oc3 – **Fb4**, ...)
11. Budapesht gambiti – (d4 – Of6, c4 – **e5**, ...)
12. Gryunfeld himoyasi – (d4 – of6, c4 – e6, Oc3 – **d5**, ...)
13. Eski hindcha himoya – (d4 – Of6, c4 – **g6**, Oc3 – Fg7, e4 – **d6**)
14. Benoni himoyasi – (d4 – **c5**, ...)
15. Voljskiy (Benko) gambiti – (d4 – Of6, c4 – c5, d5 – **b5**, ...)
16. Farzin piyodalari debyuti – (d4 – d5, Of3 – **Of6**, ...)
17. Gollandcha himoya – (d4 – **f5**, ...)
18. Inglizcha boshlanish – (**c4** – ...)
19. Larsen debyuti – (**b3** – ...)
20. Reti debyuti – (**Of3** – ...)
21. Berda debyuti – (**f4** – ...)
22. Sokolskiy debyuti – (**b4** – ...)

Hurmatli o‘quvchi! Shaxmat o‘yinida uchraydigan debyut turkumlarining mundarijasi bilan tanishib chiqdingiz.

Ularni yana ham puxta o‘rganish uchun shaxmat adabiyotlaridan muntazam foydalansangiz yanada ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lasiz.

## **2.8. Kombinatsiya va ularning yuzaga kelishi**

Avvalo, shaxmat kombinatsiyasi va u nimaligini yaxshi tushunib olish kerak. Lekin kombinatsiyani sodda bir narsa yoki atama deb tushunish noto‘g‘ri.

Shaxmat kombinatsiyasi haqida shaxmat nazariyotchilari juda ko‘p fikr va g‘oyalarini aytganlar. Keyingi yillarda shaxmat adabiyotlari va jurnallarida ham kombinatsiya to‘g‘risida ko‘p maqolalar bosildi. Biroq, hozirgacha shaxmat kombinatsiyasi

xususida yagona bir fikrga kelingani yo‘q.

Shaxmat kombinatsiyasini to‘g‘ri tushunish va “hazm qilish” uchun amaliy o‘yinlarda uchraydigan bir necha misollarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Donalarni qurbon qilish bilan bog‘liq majburiy yurish yoki yurishlar – *kombinatsiya* deb ataladi. Majburiy yurish yoki to‘g‘ri kombinatsiya shaxmatchining miyasida paydo bo‘ladi. Ammo ularning taxtada amalga oshirilishi u yoki bu shaxmatchi tomonidan o‘ylab topilmay, balki taxtada vujudga kelgan vaziyat xususiyatiga bog‘liqdir.

Majburiy yurish yoki kombinatsiya qilish mumkinligidan darak beruvchi xususiyat – *imkon (motiv)* deb ataladi. Motivlar shaxmatchining asosiy e’tibori nimaga qaratilishi lozimligini “aytib beradi”. Ba’zan motivlar o‘zining salmoqsizligi tufayli majburiy yurish yoki kombinatsiya qilish uchun yetarli bo‘lmaydi, boshqa hollarda ular salmoqli bo‘ladi va asosiy zarbani qaysi tomonga yo‘naltirishni ko‘rsatib beradi.

Shaxmatchi ustunlik beruvchi aniq yo‘lni topishi kerak. Bu yo‘l qurbon berish bilan boshlanadigan har qanday kombinatsiyalarda ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Qurbon berish yordamida ma’lum bir maqsad amalga oshiriladi. Ana shu maqsad – *kombinatsiyaning g‘oyasi* deyiladi.

O‘ynovchi kombinatsiya qilganda muhim kamchiliklardan tashqari ko‘zga “ilinmaydigan” kamchiliklardan ham foydalanishi kerak. Kombinatsiyaning ikkinchi bosqichida qurbon berish yo‘li bilan yangidan yaratilgan motivlar amalga oshiriladi. Yangi motivlarni amalga oshiruvchi so‘nggi yurish – *yakunlovchi zarba* deyiladi.

Kombinatsiyani shaxmat taxtasida ro‘y beradigan o‘ziga

xos “portlash” desa bo‘ladi. Portlash paytida odatdagi hisob va tushunchalar o‘z ahamiyatini birmuncha yo‘qotadi. Kombinatsiya tugagandan keyingina odatdagi hisob va taxminlar o‘z kuchiga kiradi.

**Kombinatsiya** – aniq hisob-kitob yuritishni talab qiladi. Ba’zan motivlar aniq va g‘oyaning mavjud bo‘lishiga qaramay, yaxshi hisob-kitob yuritmaslik tufayli rejadagi kombinatsiya amalga oshmay qoladi. O‘yin davomida ko‘pincha tomonlardan biri rejali ravishda o‘ynab borib motivlar yaratadi va ular asosida kombinatsiyani amalga oshiradi. Kombinatsiya shaxmatdagi eng muhim quroldir. Kombinatsiyalar hujumda ham, himoyada ham bo‘lishi mumkin. Faqat ularni topa bilish kerak.

Kombinatsiya qilganda vaziyatdagi eng kichik o‘zgarishlar ham e’tibordan chetga qolmasligi kerak, aks holda raqib kutilmagan zarba berishi mumkin. Mohir shaxmatchi bo‘lish uchun kombinatsion vaziyatlarni chuqur his qila olish kerak. Shunday etarli motivlar bo‘lsa, o‘sha yerda kombinatsiya ham mavjud. Demak, kombinatsiya kelib chiqishi tasodifiy emas, balki qonuniy.

37 (1,2,3,4)-rasmdagi masalalarda oqlar chiroyli kombinati-yani amalga oshirib, g‘alaba qozonadi. Ushbu kombinatsiyani topishga harakat qilib ko‘ring.



1



2



3



4

*37 (1,2,3,4)- rasm*

### Kombinatsiyalar

Shaxmatda chiroyli yurishlar, kutilmagan qurbonlar qadrlanadi. U shaxmatchilarga estetik zavq beradi, yaxshi kayfiyat ulashadi. Shaxmat o‘yining go‘zalligi ayniqsa, kombinatsiyalar ro‘y berganda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘yinda majburiy yurishlar ketmакetligi ***yo‘nalish*** deb ataladi.

### “Tegirmon” usuli

Bu kombinatsiya qiziq va yorqin ko‘rinishga ega. Unda hujum qiluvchi tomon kisht va ochib kisht berish yo‘llari bilan g‘alaba qozonadi (38- rasm):



38- rasm

Ushbu vaziyatda qoralar farzin bilan g2 xonasidan mot qilmoqchi. Ammo oqlar vaziyatga chuqur va to‘g‘ri baho berib, g6 xonasini qo‘riqlayotgan ruxni yo‘qotadi va “tegirmon” ishga tushadi.

**1. Fzd2 : g5 ! h6 : g5 2. Rf6 : g6 + SHg7–h7**

**3. Rg6 : e6 +**

“Ochib kisht”. Bir yo‘la o‘lja yig‘ish boshlanadi.

**3. ... SHh7–g7**

**4. Re6–g6 + SHg7–h7**

**5. Rg6 : d6 + SHh7–g7**

Ruxning oltinchi qatordagi takrorlanuvchi harakatlari tegirmonning aylanishini eslatadi.

**6. Rd6–g6 + SHg7–h7**

**7. Rg6 : b6 + SHh7–g7**

Qoralar o‘z shoxi bilan g8 xonasiga yursa ham bo‘ladi, biroq bu vaziyatni o‘zgartirmaydi.

**8. Rb6–g6 + SHg7–h7**

Nihoyat, oltinchi qatordagi “qo‘lga ilinadigan” donalarning barchasi yutib olindi. Keyingi reja – farzinni yutishga qaratiladi.

**9. Rg6–a6 + SHh7–g7**

**10. Ra6 : a2**

Oqlar katta moddiy ustunlikka erishdi. Endi g‘alaba qozonish qiyin emas (39- rasm):




*39- rasm*

Oqlarning farzin qurboni bilan boshlagan “tegirmon” kombinatsiyasi chiroyli yakun topdi. Oq rux oltinchi gorizontal bo‘ylab yo‘liga duch kelgan barcha raqib donalarini “maydalab” tashladi. Demak, shaxmat o‘yinida uzoqni ko‘ra bilish va aniq hisob yuritish juda ham muhim.

### **“Jalb qilish” usuli**

Bu g‘oya hujum vaqtida tez-tez ishlatiladi. Uning maqsadi raqib sipohini o‘ziga noqulay bo‘lgan xonaga jalb qilishdan iborat.



*40- rasm*

40- rasmda oq shoh mot to‘rida, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri himoyalash qiyin. Qoralar bir sipoh ortiqcha bo‘lishiga qaramay

oqlar “jalb qilish” usulidan foydalanib, raqib shohini tezroq mot qilishga erishadi.

### **1. Fzd5–a8 + !! ...**

Yana farzin o‘zini qurbon qilmoqda. Maqsad – qora shohni a8 xonasiga jalb qilishdir. Shunda tezroq mot qilish uchun sur’at yutiladi.

#### **1. SHb8 : a8**

#### **2. Fb5–s6 + SHa8–b8**

#### **3. Rf1– b1 +**

Motni bir yurishga kechiktirish mumkin, xolos.


#### **3. ... Fd6–b4**

#### **4. Rb1 : b4 x**

Albatta, kombinatsiya boshlashdan oldin shaxmatchi boshqa yo‘llarni va oxirgi holatni xayolan tasavvurida hisoblab chiqishi zarur. Shundan so‘ng kombinatsiyani boshlashi kerak.

### **“Chalg‘itish” usuli**

Bunday kombinatsiyalarni amalga oshirishda raqibning sipohini muhim xonani himoyalashdan chalg‘itiladi.



*41- rasm*

41- rasmdagi vaziyatda qora shohning himoya qo‘rg‘oni mustahkam emas. Shohga ochiq vertikal bo‘ylab hujum qilish mumkin. Oq sipohlar faol joylashgan. Ayniqsa, b2 xonasidagi fil

zo'r tazyiq ko'rsatmoqda. Bularning barchasi kombinatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Vaziyatni tahlil qilaylik. Agar oq farzin g3 xonasidan kisht bersa, qora shohning ahvoli yanada og'irlashadi. Lekin bu muhim xonani qora farzin qo'riqlamoqda. Demak, farzinni chalg'itish kerak. Bu quyidagi kombinatsiyani boshlash imkonini beradi.

### **1. Rd1-d7 ! ...**

Agar rux olinmasa, "tegirmon" usuli ishga tushadi.

(1. Fzs7-b8 2. Rd7-g7+ SHg8-h8 3. Rg7-g5+ Rf8-f6 4. Ff6 x)

### **1.... Fzs7 : d7**

Oqlar sipohni qurbon qilib, qora farzinni chalg'itishdi.

Endi kisht berish mumkin.


### **2.Fzf2-g3 + SHg8-f7**

### **3.Fzg3-g7 x**


### **Kombinatsiyalar bo'yicha topshiriqlar**

Siz shaxmatning sehrli olami bilan oshno bo'ldingiz. Lekin yuqori natijalarga erishish, shaxmatni chuqurroq o'rganish uchun hali ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Zero, izlanish va tinimsiz mehnat insonni ko'zlagan maqsadi sari yetaklaydi.


Endi aqlingizni quyidagi topshiriqlarda sinab ko'ring. 42-48-rasmlar. Ushbu o'nta masalada chiroyli kombinatsiyalar yashirin. Ularning yechimini mustaqil topishga harakat qiling. Barcha vaziyatlarda oqlar boshlaydi va g'alaba qozonadi.




*42- rasm*




*43- rasm*



*44- rasm*



*45- rasm*



*46- rasm*

## **2.9. O‘quv partiyalari**

Chiroyli shaxmat o‘ynash uchun ko‘p o‘rganish zarur. Siz sipohlarni terdingiz, o‘yinni boshlamoqchisiz. Partiyani qanday boshlagan ma’qul? Birinchi navbatda, shaxmat o‘yini maqsadini esga olish kerak. Raqib shohiga hujum uyushtirish va uni mot qilish – asosiy maqsad. Hujumni esa faqat jangga kiritilgan piyodalar va sipohlar amalga oshiradi. Har bir yurish mazmunga ega bo‘lishi kerak. Keling, chiroyli bir partiyani bиргаликда ko‘rib chiqamiz, unda sodir bo‘layotgan hodisalarni tushunishga harakat qilamiz.

### **1- o‘quv partiyasi**

#### **1. e2–e4 e7–e5**

Oqlar va qoralarning birinchi yurishlari o‘yin boshlanishidagi eng to‘g‘ri yurishlardan hisoblanadi. Piyodalar markazni egallaydi. Fillar va farzinga yo‘l ochiladi.

#### **2. Og1–f3**

Oqlar otini jangga olib chiqdi. Raqib piyodasiga hujum qilib, to‘g‘ri yurishni amalga oshirdi.

#### **2. Ob8–s6**

Qoralar ham o‘z otini o‘yinga olib chiqib, hujumda qolgan piyodasini himoya qildi.

#### **3. Ff1–s4**

Oqlar yana bir yengil sipohini o‘yinga olib chiqib, rokirovka qilish uchun tayyorgarlik ko‘rmoqda.

#### **3. Os6–d4**

Tuzoq yurish. Qoralar markazdagi piyodasini atayin tekinga berib, o‘yinga chiqqan oti bilan debyutdayoq ikkinchi marta yurmoqda. Oqlar hushyor bo‘lishi kerak.

#### **4. Of3 : e5 ?**

Javob ham xato. Oqlar ham piyoda qurbanini qabul qilmoqda. Axir u markaziy piyoda va juda “shirin”. Uning o‘rniga, 4. Od4 urib, so‘ngra 5. 0–0 yurishi yaxshi edi.

#### **4. Fzd8–g5 !**

Qoralar yana betakror yurish qildi. Ular farzini bilan raqib otiga hujum qilib, ikkinchi piyodasini ham qurban qilmoqda.

#### **5. Oe5 : f7 ??**

Raqibning ikkinchi piyodasini ham yutib olib, ikki yoqlama zarba berildi. Oqlar yutayapman deb o‘ylab, xato qiladi.

#### **5. Fzg5 : g2**

Oqlar piyodalarni “yeish” bilan ovora bo‘lib, mana endi xato qilganini tushundi. Ular o‘z ruxini himoya qilishga majbur.

#### **6. Rh1–f1 Fzg2 : e4+**

#### **7. Fs4–e2**

Farzin bilan yopish mumkin emas. Chunki raqibining otini zarbasi ostida qoladi. Fil bilan himoyalanishga to‘g‘ri keladi. Bu esa jazolanadi.

#### **7. Od4–f3 x**



*47- rasm*

Oqlar qoralarning piyodalari ortidan quvib yurib, o‘z shohining xavfsizligini ta’minlay olmadi, natijada “**bug‘ma mot**” bo‘ldi. Raqib piyodalari esa “**zaharlangan**” bo‘lib chiqdi.

## **2-o‘quv partiyasi**

### **1. e2–e4 e7–e5**

#### **2.Og1–f3**

Oqlar har doimgidek, yengil sipohini chiqarib, to‘g‘ri yurmoqda.

#### **2. d7–d6**

Yaxshi yurish, qoralar e5 piyodasini himoya qilmoqda. Biroq, f8 xonasidagi filning harakati cheklandi.

#### **3.Ff1–s4**

Oqlar navbatdagi sipohini ham eng yaxshi xonalardan biriga olib chiqdi. Kelajakda fil f7 piyodaga hujum qilmoqchi.

#### **3. h7–h6 ?**

Bu yurish jiddiy xato hisoblanadi. Qoralar nima maqsadda piyoda surganini tushunish qiyin.Buning o‘rniga biror bir yengil sipohni o‘yinga chiqarish kerak edi.

#### **4. Ob1–c3**

O‘yin to‘g‘ri davom ettirilmoqda. Chunki yana bir sipoh o‘yinga chiqdi.

#### **4. a7–a6 ?**

Chetdagi piyoda bilan yana bir maqsadsiz yurish. Qoralar sipohlarini rivojlantirishda juda orqada qolmoqda.

#### **5. 0–0**

Har tomonlama foydali yurish. Qoralar o‘z sipohini o‘yinga chiqarishi kerakligi esiga tushdi va uni amalga oshirdi. Lekin buni yaxshi bajarmaydi.

#### **5. Fs8–g4**

Agarda bu yurish o‘rniga 5. ... Of6 yurilganida yaxshiroq bo‘lar edi. Chunki shoh tomondagi ot va fil o‘yinga chiqarilsa, rokirovka qilish uchun imkoniyat paydo bo‘lardi. Qoralar tomonidan amalga oshirilgan yurish esa ancha kuchsiz.

#### **6. Of3: e5 !**

Ushbu vaziyatda oqlar amalga oshirgan yurish kuchli va ham chiroyli. Sipohlar o‘yinga olib chiqilgan va shoh xavfsiz bo‘lganda faol harakatlarga kirishish kerak.

### **6. Fg4: d1 ??**

Xatoga yo‘l qo‘ydi deb o‘ylagan qoralar oq farzinni yutib oldi. Hatto, eng yaxshi bo‘lgan 6. d6 : e5 yurishida ham oqlar

7. Fz : g4 yurishi bilan juda qulay holatda piyodani yutib olardi.

Endi XVIII asrdayoq ma’lum bo‘lgan va uni birinchi bor amalga oshirgan shaxmatchi nomi bilan atalgan mashhur “**Legal moti**” amalga oshiriladi.

### **7. Fs4 : f7+ SHe8–e7**

### **8. Oc3–d5 x**



48- rasm

Shunday qilib, oqlar tomonidan jangga kiritilgan uchta sipoh qoralarning butun qo‘shinidan kuchli bo‘lib chiqdi. **Qoida:** O‘yin boshida o‘z sipohlariningizni tezroq o‘yinga olib chiqishga harakat qiling. Chetdagi piyodalarning yurishiga vaqt sarflamang. Befoyda va maqsadsiz yurishlar qilmang.

### **3-o‘quv partiyasi**

#### **1. e2–e4 e7–e5**

#### **2. Og1–f3 f7– f6 ?**

e5 piyodasini noto‘g‘ri himoyalash. Chunki qora shohga

baravariga ikki diagonal bo‘yicha yo‘l ochiladi: a2–g8 va h5–e8. Piyodani 1. ...

Ks6 yurishi yordamida qo‘riqlash eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Hozir oqlar oddiygina 3. Fs4 yurishi mumkin va qora shoh uzoq vaqt rokirovka qila olmaydi. Lekin oqlar yanada kuchli yurishni amalga oshirishi kerak.

### **3. Of3 : e5 !**

Otni qurban qilib, oqlar kuchli hujum imkoniga ega bo‘ladi.

### **3. f6 : e5**

Qabul qilingan qurbanlik og‘ir oqibatlarga olib keladi.

Boshqacha yurilganda yaxshiroq bo‘lardi.

### **Masalan:**

3. Fze7 4. Of3–Fz:e4+ 5. Fe2, lekin bu holatda ham qoralarga

yaxshi bo‘lmaydi. Chunki farzin o‘yinga erta chiqqanligi sababli oq sipohlar hujumi ostida qoladi.

### **4. Fzd1–h5+ SHe8–e7**

4. g6 yurishi yaxshi emas, chunki oqlar 5. Fze5+ yurishi bilan

h8 xonasidagi ruxni yutib oladi. Endi qora shoh xavfli “sayohat” ga chiqishga majbur. Ikkinci yurishda xatolikka yo‘l qo‘yishning oqibati shu. Shohning himoyachisi – f7 piyoda endi yo‘q.

### **5. Fzh5 : e5+ SHe7–f7 6. Ff1–s4+ SHf7–g6**

Qoralarning himoyalanish yo‘llari kam. Agarda 6. d5 yurilsa, unda 7. F:d5+ SHg6 8. h4–h6 9. F:b7! – Fd6 (9. Fb7 10. Fzf5 x)

10. Fza5 yurishidan so‘ng oqlar katta ustunlikka erishadi.

Hozir shoh o‘z qo‘shinidan oldinda bo‘lib qoldi. Bir o‘zi raqib sipohlariga qarshi. Shoh uchun juda yomon holat.

### **7. Fze5–f5+ SHg6–h6 8. d2–d4+**

Piyoda bilan ham markaz egallandi, ham raqib shohiga hujum bo‘ldi. Fil esa, hatto yurmay turib, shohga hujum qildi.

**8. ... g7–g5**

**9. h2–h4 !**

Hujumga yangi kuch – h1 xonasidagi rux kiritilmoqda.

**9. ... SHh6–g7**

Shoh mot bo‘lmaslik uchun o‘z qo‘smini orasiga chekinishga majbur. Aks holda oqlar ikki yoqlama shoh berib, baribir hujum qilar edi.

**10. Fzf5–f7+ SHg7–h6**

Qora shoh yana h6 xonasiga borishga majbur. Endi o‘yinni ikki yoqlama zarba yakuniga yetkazadi.

**11. h4 : g5 x**



*49- rasm*

O‘yin boshida yo‘l qo‘yilgan birgina xatoning oqibati nimalarga olib keldi. Umuman olganda, faqat shoh tomonidan himoyalangan f7 va f2 xonalari o‘yin boshida alohida e’tiborni talab qiladi.

### **Debyutdagи vazifalar**

Endi debyutda qanday o‘ynamaslik kerakligini bilib olish zarur.

## Foydali maslahatlar

**Birinchidan.** Piyodalar bilan yurishlar sipohlarni rivojlantirish uchun tayyorgarlik hisoblanadi. Shuning uchun o‘yin boshida piyodalar bilan ko‘p yurish kerak emas. Sipohlar bemalol jangga chiqishlari uchun piyodalar bilan 2–3 yurish yetarli. Chetdagi piyodalar bilan yurish sipohlarni qulay xonaga joylashtirishga olib kelmay, ko‘pincha keraksiz bo‘ladi. Bu yurishlarni bajarmaslik va zarurat bo‘lmasa yurmaslik kerak.

**Ikkinchidan.** O‘yin boshida farzinni erta olib chiqmaslik kerak. Farzin – eng kuchli og‘ir sipoh va raqibning yengil sipohlari tomonidan hujumga duch keladi. U chekinib, vaqtini yo‘qotishga majbur bo‘ladi. Bu bilan raqib kuchlarini rivojlantirishiga yordam beradi. Shunday qilib farzinni erta olib chiqish, deyarli har doim rivojlanishdan ortda qolishga sabab bo‘ladi. Bu esa faqat farzinni emas, balki o‘yinni ham yutqazib qo‘yishga sabab bo‘lishi mumkin.

**Uchinchidan.** Zarurat bo‘lmasa o‘yinda bir sipoh bilan takroriy yurishlar qilish kerak emas. Bu vaqt ichida raqib o‘z sipohlarini o‘yinga olib chiqishi hamda hujumga o‘tishini esdan chiqarmang. Axir maydonda yakka jang qilib bo‘lmaydi–ku?!

**To‘rtinchidan.** Rokirovkani amalga oshirishni kechiktirmaslik kerak. O‘yin boshida shohning xavfsizligi bo‘lajak jangdagi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

## 4-o‘quv partiyasi

**1. e2–e4 e7–e5**

**2. Og1–f3**

Birinchi navbatda, jangga yengil sipohlar – otlar va fillarni olib chiqish zarur.

**2. ... Fzd8–f6 ?**

Mana bu yurishga hali erta. Faqatgina ko‘rinishidan kuchli yurishdek tuyuladi. 2. ... Os6 yoki 2. ... Of6 yurilsa, yaxshiroq

bo‘lardi.

### 3. **Ff1–s4**

Oqlar ikkinchi sipohini ham faol holatga olib chiqdilar.

3. Os3 yurishi ham yaxshi hisoblanadi.

### 3. ... **Fzf6–g6 ?**

Farzin ikkita – e4 va g2 piyodalariga hujum qilmoqda. Biroq rivojlanish o‘rniga piyodalar ortidan quvish juda xavfli.

### 4. **0–0**

Shoh xavfsiz joyga berkinadi, rux ham o‘yinga kiradi.

### 4. ... **Fzg6 : e4**

Qoralar piyodani yutib olib, rivojlanishda juda ortda qoldi.

### 5. **Ss4 : f7+ SHe8–d8**

Filni olish mumkin emas edi. 5. SHf7 bo‘lsa, 6. Og5+ va ikki yoqlama zarbadan so‘ng qora farzin halok bo‘lardi.

Bu erda oqlar e8 xonasini rux bilan egallay olsa, qora shoh mot bo‘lishini ko‘rib qoldilar. Demak, “e” vertikalini tozalash kerak.

### 6. **Of3 : e5 ! Fze4 : e5 ?**

Farzin oq sipohlarga qarshi bir o‘zi o‘ynashda davom etmoqda.

### 7. **Rf1–e1 Fze5– f6**

Farzin ruxning hujumidan chekinishga majbur.

### 8. **Re1–e8 x**



**50- rasm**

Qoralar debyutda bir farzinni o‘yinga chiqarib, piyodalar ortidan quvib yurdi va rivojlanishdan ortda qoldi. Bu esa debyut qoidasini buzish demakdir. Bir sipoh bilan o‘ynashning jazosi shu !

### **5-o‘quv partiyasi**

#### **1. e2–e4 b7–b6**

O‘yinni chekka xonalardagi piyodani surish bilan boshlasa ham bo‘ladi, biroq bu markazni berib qo‘yishga olib keladi.

#### **2. d2–d4 Fc8–b7**

Qoralar filini o‘yinga chiqarib, markazdagi e4 piyodani yutib olmoqchi.

#### **3. Ff1–d3 f7–f5 ?**

Go‘yoki qoralar oqlarga “tuzoq” qo‘ygandek. Bir qarashda f5 piyodasini yutib bo‘lmaydi. Biroq:

#### **4. e4 : f5 !**

Qoralar uchun kutilmagan yurish.

“ f ” piyodasi surilganidan keyin qoralarning shoh tomoni ancha zaiflashib qoldi. Bu esa hujum qilish uchun yaxshi imkoniyat.

#### **4. ... Fb7 : g2**

#### **5. Fzd1–h5+ g7–g6 6. f5 : g6**

Hozir h1 xonasidagi ruxni yutishga vaqt yo‘q. Chunki oqlar piyodani ochib farzin bilan kisht bersa, qora shoh mot bo‘ladi.

#### **6. ... Og8–f6 ??**

Qoralar farzinga hujum qildi. Farzin chekinsa, h1 xonasidagi rux yutiladi va bir sipoh ortib qoladi. Ammo oqlar o‘yinni chiroyli kombinatsiya bilan tugatadi.

#### **7. g6 : h7+ ! Of6 : h5**

#### **8. Fd3–g6 x**



*51- rasm*

*Izoh:* Har qanday faol hujum qilishdan oldin o‘z shohingizni xavfsizligini unutmang. Aks holda raqib tomonidan ham kutilmagan zarba yoki qarshi hujum bo‘lishi mumkin.

### **6-o‘quv partiyasi**

**1. e2–e4 e7–e5**

**2.Og1–f3 Ob8–s6**

**3.Ob1–s3 Og8–f6**

**4.Ff1–s4 Ff8–s5 5. 0–0 0–0**

Hozir ikkala tomon ham debyut qoidalariga to‘liq amal qilgan holda o‘ynamoqda.

**6. d2–d3 d7–d6**

Qoralar durangga erishish maqsadida oqlarning yurishlarini takrorlashga qaror qildi. Raqib yurishlarini takrorlash nimaga olib kelishini ushbu partiya ko‘rsatadi.

**7.Fs1–g5 Fs8–g4**

Hozir yurishlarni qaytarishdan voz kechishga qulay vaziyat kelgan edi, qoralar 7. ... h6 yoki 7. Fe6 yurgani yaxshi edi. Bu bilan ular vaziyatni tenglashtirishga erishardi.

**8. Os3–d5 Os6–d4**



*52- rasm*

Oqlar raqibining fikrini payqab qoldi va tuzoq qo‘yishga qaror qildi.

**9. Fzd1–d2 Fzd8–d7**

**10. Fg5 : f6 Fg4 : f3**

Hozir takrorlashdan voz kechishga kech bo‘ldi, agar 10. g:f yurilsa, unda 10. Of6+ va qoralalar farzinsiz qolardi.

**11. Od5–e7 +**

Shoh! Shaxmatda takrorlash mumkin bo‘lmagan holat. O‘yin qoidasi bo‘yicha shohni himoya qilish zarur.

**11. ... SHg8–h8**

Endi 12. g:f yurishi xato, chunki 12. Of3 dan keyin endi oqlar farzinsiz qoladi. Oq sipohlar hujumga shay turibdi. Demak, o‘yinni chiroyli kombinatsiya bilan tugatish imkoniyati mavjud.

**12. Ff6 : g7+ ! SHh8 : g7**

**13. Fzd2–g5+ SHg7–h8**

**14. Fzg5–f6 x**



*53- rasm*

*Raqib yurishlarini ko‘r-ko‘rona takrorlash mumkin emas.*

## 2.10. Piyodalar joylashuvi

Partiya boshlanishida bo‘lajak jang uchun ikkala raqib ham kuchlarni yaxshi joylashtirishga intiladi. Masalani muvaffaqiyatli bajarish uchun piyodalarni to‘g‘ri joylashtirish zarur. Piyoda shaxmat qo‘shindan kuchsiz dona bo‘lsa ham unga katta vazifa yuklatiladi. Piyodalar hujumda ham, himoyalanishda ham muhim vazifani bajaradi.

Agarda piyoda biror xonaga hujum qilgan bo‘lsa, bu xonada turadigan raqib sipohi yo‘q qilinadi. Aynan piyoda muhim xonalarni qo‘riqlaydi. Piyodalar oldinga harakatlanganda raqib sipohlari kirib kelishi mumkin bo‘lgan xonalar ochiladi, eng xavflisi piyodalar surilganida shohning oldi ochilib, zaiflashib qoladi. Boshqa tomondan, piyodalarni oldinga harakatlantirib, raqib sipohlarini siqib chiqarish oson bo‘ladi.

Piyodalarning joylashuvi ko‘pincha, sipohlar holatini va o‘yinni davom ettirish rejasini belgilab beradi. Misol uchun, piyodalar markazi partiyada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Piyodalar xonalarni egallab turishi uchun yetarlicha oldinga surilgan bo‘lishi kerak. Ular harakatchan bo‘lishi, ya’ni sipohlar bilan to‘sib qo‘yilmagan bo‘lishlari kerak.

Qoralar piyodalari va sipohlarining to‘g‘ri joylashuviga misol.



54-rasm

Piyodalarning vazifasi sipohlarni joylashtirish uchun yo‘l ochishdir. Piyodalarning himoyasida sipohlar jangga chiqishlari uchun qulay qilib joylashtiriladi. Sipohlarning joylashtirilishiga qarab piyodalarini yurish tartibi mavjud.

Sipohlardan farqli ravishda, piyodalar hech qachon orqaga yura olmasliklari va shuning natijasida vujudga kelgan zaifliklar ko‘pincha partiya oxirigacha qolishini esda saqlash zarur.

2-vaziyatda oqlar bir otini ikki piyodaga qurbon bergan, lekin kuchli piyodalar markazini egallagan. Sipohlar hujumga yaxshi safarbar qilinganligi bir necha yurishda o‘yinni yakunlashga imkon beradi.





55-rasm



- 1. Of4–d5 ! Oe7 : d5**
  - 2.Fzf3 : f6 Od5 : f6**
  - 3.Fs1 : h6 Ob8–d7**
  - 4.Fh6 : f8 SHg8 : f8**
  - 5.e4 – e5 va oqlarda ustunlik.**
- Qoralar taslim bo‘ldi.**

### 2.10.1. Piyodali endshpillardan

Endi imkoniyatingizni quyidagi topshiriqlarda sinab ko‘ring. (56-60- rasmlar. Ushbu o‘nta etyud piyodali endshpilga oid bo‘lib, ularning barchasida oqlar boshlab g‘alaba qozonadi. Etyudning yechimini mustaqil topishga harakat qiling).





56- rasm





57- rasm



**Izoh:** Etyudlar ko‘rinishidan oddiy, biroq javobi murakkab. Aslo shoshilmang, raqib tomonidan qilinadigan yurishlarni hisobga oling!



58- rasm



59- rasm



60- rasm

### 2.10.2. Shaxmat o‘yinidagi ayrim atamalar

O‘rganuvchi shaxmatchi o‘yin qoidalarining barchasi bilan tanishib chiqqach, o‘zi o‘ynashga kirishishi va o‘rgangan qoidalarini mustahkamlab olishi lozim. Shu bilan birgalikda o‘yin

uslubini chuqurroq tahlil qilishi va kombinatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan turli masala va etyudlarni tez-tez yechib turishi kerak.

Avvalo, masala va etyudlarning nima ekanligini yaxshi tushunib olish va bu narsaning shaxmatchiga ijobiy ta’sirini, ya’ni o‘ynovchi malakasining oshishida yordamchi vosita ekanligini anglash zarur.

Shaxmat o‘yinida bir qancha atamalardan foydalaniladi.

Ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

1. **Gambit** – o‘z sipohlarini o‘yinga chiqarish va hujumqilish maqsadida dastlabki yurishlardayoq piyoda yoki sipoh qurban qilinadigan o‘yin boshi. Masalan: Shoh gambiti, farzin gambiti va hokazo.

2. **Kontrgambit** – oqlarning gambitiga qoralarning gambit bilan javob berishi. Masalan: Folkbeer kontrgambiti, Albin kontrgambiti va hokazo.

3. **Seytnot** – o‘ylash uchun vaqtning kamligi (yetishmasligi).

4. **Sugsvang** – o‘ynovchi o‘zi uchun noqulaylik tug‘diruvchi yurish qilishga majbur bo‘lgan vaziyat.

5. **Sur’at (temp)** – shaxmatdagi vaqt birligi.

6. **Masala** – ma’lum miqdordagi yurishlar (2–3 va hokazo) ichida oqlar yoki qoralar mot qiladigan sun’iy vaziyat.

7. **Etyud** – tomonlardan biri (odatda oqlar) yagona yurishlar yordamida o‘yinni yutuqqa yoki durangga olib borishi mumkin bo‘lgan sun’iy vaziyat.

Tavsifdan ko‘rinib turibdiki, masala yechish shaxmatchining o‘yinni ko‘rish qobiliyatini, yutuqqa olib boradigan qisqa yo‘llar hamda mot qilish usullarini tezda topa bilishda katta yordam beradi.

Shaxmatchida bu kabi qobiliyatning bo‘lishi, ayniqsa musobaqalarda asqotadi. Chunki o‘yin vaqt chegaralangan, ya’ni soat qo‘yiladi. Vaqt kam qolgan tomon esa qisqa vaqt ichida yutuqqa erishishi qiyin.

Ustunlik bo‘la turib ham vaqtin tugaganligi sababli o‘yinni yutqazib qo‘yish mumkin. Masala yechish bilan ko‘proq shug‘ullangan shaxmatchi bunday vaziyatlardan oson chiqib ketadi.

Masala yechish o‘yinni tez ko‘ra olish qobiliyatini ham o‘stiradi. Etyudda esa masaladan farqli o‘lar oq taxtada yuzaga kelgan vaziyatni birgina yurish bilan o‘zgartirib yuborish mumkin.

Aytaylik, vaziyat oqlar uchun og‘ir. Ular shunday bir yurish qiladiki, o‘yin durangga yoki yutuqqa aylanishi mumkin.


Shuning uchun ham o‘ynovchi raqib tomonidan kutilmagan yurishlar, imkoniyatlar borligini, istagan paytda bir yurish bilan o‘yin taqdirini hal qilishi mumkinligini nazardan qochirmasligi lozim.

Etyudlarni yechish shaxmatchini qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga o‘rgatadi. Har ikkala holat ham kombinatsion o‘yin namoyish etishga undaydi. O‘yin davomida qo‘llaniladigan kombinatsiyalar maftunkor va go‘zaldir.


Shaxmatga doir etyud va masalalarni yechish o‘yinchining o‘yin darajasi yuksalishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘yin paytida taxtadagi yurishlarni xayolan sanab, keyingi vaziyat qanday bo‘lishini oldindan ko‘rishga o‘rgatadi. Bu esa shaxmat o‘yinidagi eng murakkab jarayondir!

### **2.10.3. Qiziqarli masala va etyudlar**

Endi aqlingizni quyidagi qiziq topshiriqlarda sinab ko‘ring. (61–65 rasmlar). Ushbu o‘nta etyud sipohli endshpilga oid bo‘lib, ularning barchasida oqlar boshlab g‘alaba qozonadi. Etyudning yechimini mustaqil topishga harakat qiling).




*61- rasm*




*62- rasm*


**Izoh:** Etyudlar ko‘rinishidan oddiy, biroq javobi murakkab. Aslo shoshilmang, raqib tomonidan qilinadigan yurishlarni hisobga oling!



*63- rasm*



*64- rasm*



*65- rasm*

### O‘z-o‘zini nazorat qilish savollari

1. Shaxmatning boshlanish qismi?
2. Shaxmatning yakuniy qismi qanday ataladi?
3. Shaxmatda ikkita shohning bir-biriga qarama-qarshi turgan holati nima deyiladi?
4. Shaxmat adabiyotlaridagi (0–0) va (0–0–0) belgilari nima ma’noni bildiradi?
5. Shaxmat o‘yini necha qismdan iborat?
6. Debyutlar necha turga bo‘linadi?
7. Jahon championining qay biri “kombinatsiyaning dahosi”?
8. Shaxmat o‘yininining o‘rta qismi nima deb ataladi?
9. Ikki fil bilan mot qilish tartibi qanday? Uni amalda taxtada bajarib ko‘rsating.
10. Ikki ot bilan yakka shohni mot qilib bo‘ladimi? Sababini tushuntirib bering.
11. Ot va fil bilan mot qo‘yib bo‘ladimi? Qaysi qoidaga rioya

qilish kerak?

- 12.** Og‘ir va yengil sipohlar bilan mot qo‘yish usullarini to‘liq daftaringizga yozib oling.
- 13.** Farzin bilan mot qilish tartibi qanday? Uni amalda taxtada bajarib ko‘rsating.
- 14.** Ikki rux bilan mot qilish tartibi qanday? Uni amalda taxtada bajarib ko‘rsating.
- 15.** Bir rux bilan mot qilish tartibi qanday? Uni amalda taxtada bajarib ko‘rsating.
- 16.** Qarshi holat (oppozitsiya) nima degani va uning necha xil turi mavjud?
- 17.** Rokirovkaning necha xil turi mavjud va ular yozuvda qanaqa belgi bilan ifodalanadi?
- 18.** Shaxmat adabiyotlarida uchraydigan qisqacha belgilarni aytib bering va ularni daftaringizga yozing.
- 19.** Donalarning solishtirma kuch birligini aytинг va ularni daftaringizga yozing.
- 20.** Shaxmat o‘yini qoidalarini aytib bering va o‘zingiz ham shu qoidalarga amal qiling.

### **3 – Modul. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING SHAXMAT O‘YINIGA QOBILIYATLARINI BAHOLASH DIAGNOSTIKASI**

#### **3.1. Bolalarning aqliy rivojlanishida shaxmatning o‘rni**

